

O‘zbekiston Respublikasi
Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

Alifbe



Toshkent 2025-yil

“Alifbe” fani yuzasidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda o‘qituvchilari (fan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari), maxsus pedagoglar, amaliyotchi psixologlar hamda ota-onalar uchun ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanma 2025-yilning 25-mart kuni Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi huzuridagi “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-metodik kengashning 1-sonli yig‘ilishida muhokama etilib, kengash qaroriga binoan nashrga tavsiya etildi.

Ushbu uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori v.v.b. Yuliya Risyukovaning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

Mualliflar: Aydarova Umida Baxtiyarovna, Mo‘minov Sulton Akbar o‘g‘li, Alimova Gulmira Kabuljanovna.

Taqrizchilar:

I.Xamrayeva	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Oligofrenopedagogika kafedrasi dotsenti, PhD
R.To‘rayev	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiglashtirish bo‘limi boshlig‘i
N.Ochilova	Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 36-sonli umumta’lim maktabi maxsus pedagogi

Tahrirchi:

D.Ko‘makova	Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
--------------------	--

“Alifbe” fani yuzasidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda o‘qituvchilari (fan o‘qituvchilari), maxsus pedagoglar, amaliyotchi psixologlar hamda ota-onalar uchun mo‘ljallangan.

Kirish

Har bir mamlakat taraqqiyotining muhim sharti yosh yetishib kelayotgan avlodni har tomonlama mukammal bo'lishi, jamiyatning kelajagi esa uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta'lim samaradorligini oshirish masalasi bugungi kundagi muhim vazifalardan biriga aylanib kelmoqda.

Ayniqsa davlatning ijtimoiy siyosatida voyaga yetmagan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ayniqsa ularga ta'lim berish, alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, shuningdek, ularni jamiyatda o'z o'rinlarini egallashlariga ko'maklashish alohida ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosib sharoit yaratish, ular ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish borasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Yangi tahrirda qabul qilingan **“Ta'lim to'g'risida”gi** Qonunga ham inklyuziv ta'lim haqida modda kiritildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **50-moddasida “Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi”** jumlasining kiritilishi ham diqqatga sazovordir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim maktablarida bilim olishi, do'stona muhitni, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo'ravonlik hamda kamsitishlikka yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta'lim-tarbiya olishi ko'zda tutilgan.

Ushbu **“Alifbe”** darsligi yuzasidan inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari (fan o'qituvchilari), maxsus pedagoglar, amaliyotchi psixologlar hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan bo'lib yakka hamda guruhli sinf mashg'ulotlarida ishlash usullari yuzasidan yondashuv yoritib berilgan.

Qo'llanma amaldagi o'quv reja va dastur, darsliklar asosida yaratilgan bo'lib, sinfda bajaradigan vazifalari, savollarga beradigan javoblari, uy vazifasini bajarishi, yangi dars mavzusiga tayyorlanishi, shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlari, tibbiy tashxislari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga moslashtirilgan holda ishlangan.

Undan tashqari qo'llanmada umumta'lim maktabida tashkil qilingan inklyuziv ta'lim sinflaridagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagoglar oddiy bilim beruvchigina bo'lib qolmasdan ta'lim jarayoni va ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy tashkilotchi hisoblanishi har tomonlama ochib berilgan.

Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kritik (tanqidiy) fikrlash (critical thinking), kreativlik (creative thinking) muloqot qilish kommunikatsiya (communication), jamoaviy ishlash ko'nikmasi kooperatsiya yoki kollaboratsiya (coordinating with others) ko'nikmalari rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Eslatma! Inklyuziv ta'lim sinfi qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalari bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi maxsus pedagog, amaliyotchi psixologi, tibbiyot xodimi hamda ota-ona bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Shu asosida ota-onalar uyda tegishli vazifalarni bajarish, o'rgangan bilimlarini nazorat qilib borishi ko'rsatib o'tilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari har bir mavzu yakunida o'qituvchi o'quvchilardan mavzuga doir yoki umumiy savollar berishi mumkinligini ta'kidlashi lozim. O'quvchilar bu bilan o'zlaridagi bo'shliqlarni to'ldirishi va mavzuni mustahkamlashi kutiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish



1-rasm. Sinflar va laboratoriyalardagi o'quvchilar o'tirish joylarini taqsimlashda o'quvchining salomatligi holati e'tiborga olinishi

1. Evakuatsiya rejasi – bu yerda binodan xavfsiz chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi evakuatsiya rejasi joylashgan. Bu jadval binodan favqulodda holatlarda tez va xavfsiz chiqishni ta'minlash uchun muhim.

2. Doska – odatiy sinfxonalarda mavjud bo'lgan yozuv va dars o'tish uchun mo'ljallangan doska.

3. Brayl yozuvli kompyuter – ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar uchun Brayl shriftli kompyuter va klaviaturalar.

4. Moslashtirilgan o'quv stollari – umumiy o'quvchilar uchun, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham qulay bo'lgan maxsus stollar.

5. Nogiron aravasidagi o'quvchi uchun stol – nogironlar aravasidagi o'quvchilarga moslashtirilgan maxsus stol. Stolning balandligi va kengligi o'quvchining harakatlanishiga mos keladi.

6. Xavfsizlik tizimi (qo'ng'iroq tugmasi) – bu yerda favqulodda holatlarda qo'ng'iroqni bosish mumkin bo'lgan xavfsizlik tugmasi mavjud.

7. Eshik va kirish uchun maxsus moslamalar – eshik hududida nogironlar uchun maxsus qulay kirish, pandus va eshik ostonasini ko'rsatadi.

9. "Chiqish" belgisi – evakuatsiya yoki favqulodda holatlarda chiqish yo'lini ko'rsatuvchi yozuv.

10. Evakuatsiyaning audio-va vizual belgilari – eshitish va ko‘rish qobiliyati past bo‘lgan bolalar uchun maxsus evakuatsiya belgisi.

11. Video kuzatuv kamerasi – sinfning xavfsizligini ta‘minlash uchun o‘rnatilgan kamera.

12. Tutqichlar – harakatlanishda qiyinchiliklar bo‘lgan o‘quvchilar uchun o‘rnatilgan maxsus tutqichlar.

13. Evakuatsiya va xavfsizlik uchun audio-va vizual ma‘lumot taqdimotchilari evakuatsiya jarayonini osonlashtirish uchun audio va vizual ko‘rsatmalar.

14. Taktill yo‘l – ko‘zi ojiz bolalar uchun joylashtirilgan maxsus taktill yo‘llar, bu ularning sinfda xavfsiz harakatlanishlariga yordam beradi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (*eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar*)ni doskaga yaqin, o‘qituvchi hamda tengdoshlarini ko‘rib turishi uchun qulay bo‘lgan oyna tomondan hamda har qanday qatordagi birinchi va ikkinchi partada o‘tirishini tavsiya qilish (*og‘zaki nutq 2,4 m, shivirlash esa 0,5 - 1 m masofadan qabul qilinadi*);

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (*ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar*)ni sinfga osongina kirib chiqishi uchun o‘rta qatordagi birinchi va ikkinchi partaga hamda ko‘rish qobiliyati past o‘quvchilarga tabiiy yoritish sharoiti ko‘proq bo‘lgan deraza tomondagi chekka stollardan joylar ajratilishi, shuningdek ko‘zoynak bilan ko‘rish qobiliyati yaxshi bo‘lgan o‘quvchilar istagan joylariga o‘tirishini tavsiya qilish;

Somatik kasalliklar (*psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar*)i mavjud bolalarni ko‘pincha jismoniy va psixologik muammolarni bir vaqtda boshdan kechirishini inobatga olib sinf eshigiga yaqin qatordagi partaga hamda revmatizm kasalliklari bor, tez-tez angina va yuqori nafas yo‘llarining o‘tkir shamollashiga moyil o‘quvchilarga derazadan uzoqroqqa o‘tirish joylari ajratilishi;

Nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (*alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish*)ni o‘qituvchi hamda boshqa (sog‘lom) bolalarni aniq ko‘rib turishini inobatga olib oyna tomondagi qatorning old qismlaridagi partalarga joylashtirish;

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (*bolalar serebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi - pakanalik*)ni maktabning birinchi qavatida joylashgan sinfda, mustaqil harakatlanishiga imkon berishni inobatga olib, o‘rta qatordagi birinchi partaga joylashtirish (zarur holatlarda maxsus parta talab qilinadi) qolaversa, o‘quvchilarning gavdalari buzilishini profilaktika qilish maqsadida, ularning o‘sishiga mebel raqami mos kelishi, oxirgi qatorda o‘tirganlar bir yilda 2 marta joylarini o‘zgartirishlariga sharoit yaratish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalarni jismoniy qiyinchiliklarga duch kelishini, ammo intellektual jihatdan o‘z tengdoshlari bilan bir xil ekanligini inobatga olib o‘rta qatorga joylashtirish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (*o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji*)ni maxsus pedagogik, tibbiy va psixologik yondashuvlar talab qilinishini inobatga olib o‘rta qatorga joylashtirish;

Intellectual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni sinf eshigiga yaqin bo‘lgan chetki qatorning birinchi va ikkinchi partalariga joylashtirish;

Xulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektorida buzilishi bo‘lgan bolalarni eshikka yaqin bo‘lgan qatorning devor tomonidan birinchi va ikkinchi partaga o‘tirishini taklif qilish;

Intellectual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar (*agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq bir oyda bir martadan oshmagan vaqtda*) alohida e‘tibor va yondashuv talab qilishini inobatga olib sinfdan hech kimga xalal bermasdan chiqib ketishga qulay bo‘lgan eshikka yaqin o‘ng tomondagi qatorlarga joylashtirish;

Diqqat yetishmasligi hamda giperaktiv bolalarda diqqatni jamlashda, topshiriqlarni yakunlashda yoki o‘rnatilgan tartib qoidalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishini inobatga olib eshikka yaqin bo‘lgan qatorga joylashtirish lozim.

Mazkur tavsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”** 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli hamda “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida” nizomi hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining **“Maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini jihozlashda foydalaniladigan mebellarga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablarini (0057-23-son sanqvan) tasdiqlash to‘g‘risida”** 2023-yil 7-noyabrdagi 24-sonli qaroridan kelib chiqib tayyorlangan.

1-dars. Darslik bilan tanishtirish. Mustaqillik darsi

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashib, namuna sifatida salomlashish va o'zini tanishtirish madaniyatini o'quvchilarga ko'rsatadi.

Tanishuv mashqi: O'quvchilar bir-birlariga ismlarini aytib, tanishib oladilar. Mashq avval juftlikda, so'ng sinf bilan o'tkaziladi.

Bugun siz bilan "Tanishuv" mashqini o'tkazamiz. Partadoshingizga qarab turib oling va bir biringizga ismlaringizni aytib tanishing. Endi hammamiz istagan 5 nafar o'rtoqlarimizni oldiga borib o'zingizni va partadoshingizni ismini ayting.

Bunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar yodida yaxshi saqlab qolishi uchun amaliy bajarib ko'rsatish muhim hisoblanadi. Maktabda hamda sinfda o'zini qanday tutish qoidalari, ismi aytilganda o'rnidan turib javob berish, sinf doskasi oldiga chiqqanda qanday turish hamda o'z o'rniga kelib o'tirish ko'nikmalari shakllantiriladi.



O'qituvchi tomonidan darslik, o'quv qurollari bilan tanishtiriladi, ulardan to'g'ri foydalanish, kitob varaqlash tartibini amaliy bajarib ko'rsatiladi.

O'quvchilarni jalb qilishda:

Darslikda nimani ko'ryapsiz? Barcha bolalar darslikda ko'rgan (bolalar, ota-ona, bayroq, sharlar, mushaklar, gullar, samolyot, humo qushi, karnay) rasmlarni aytishadi. Rasm asosida matn tuziladi. Bilimlar kuni haqida suhbat o'tkaziladi. Unda bolalarga Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor Prezident sovg'alari haqida suhbatlashish tavsiya etiladi.

O'qituvchi - keling darslikdagi bolalarga ism qo'yamiz. O'quvchilar rasmdagi qiz va o'g'il bolalarga ism qo'yishlari uchun imkon beriladi. Masalan, rasmdagi bolalar juda xursand. Sababi nima deb o'ylaysiz? (darslikda ko'rsatilgan bolalardagi bayram kayfiyati ta'riflanadi)

Keling sizning kayfiyatingiz qanday? O'quvchilar (oldindan partasiga qo'yilgan) o'ziga mos smaylikni tanlaydi. Shunga qarab o'qituvchi o'quvchilarning darsga qiziqishi va darsda o'zini qanday his qilish kayfiyatini bilib oladi.



Barcha o'quvchilar bilan birgalikda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham og'zaki nutqini rivojlantirish maqsadida savol-javob o'tkaziladi.

Savollar.

Kecha qanday bayramni nishonladingiz?

Ota-onangizdan "Mustaqillik kuni" haqida eshitganmisiz?

Taqdim etish.

Darslikda berilgan "Ulug'imsan, Vatanim!" she'ri ifodali o'qib, mazmuni tushuntirib beriladi. Darslikda tasvirlangan har bir rasm ko'rsatiladi va ta'riflanadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda namunalar og'zaki aytilishidan ko'ra amaliy bajarib ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir!

Darsda o'quvchilar bilan hamkorlikda qo'llariga bayroq hamda sharlar olib, musiqa bilan mustaqillik bayrami o'tkazish tavsiya qilinadi. O'quvchilar mustaqillik bayrami va bilimlar kunini ko'tarinki ruhda shodiyona bilan nishonlashlari unutilmas voqea bo'ladi. Alohida ehtiyoji bo'lgan o'quvchining ham ishtirokiga e'tibor qaratiladi.

Aziz o'quvchilar bugun biz qanday bayramni nishonladik?

Bolalar o'z fikrlarini bildiradilar.

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.



Uyga vazifa. *Oilangiz bilan taassurotlaringizni bo'lishing.*

2-dars. Men –birinchi sinf o‘quvchisi. So‘z va gap haqida tushuncha darsi

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi. O‘quvchilarga o‘qituvchi darslikdagi shartli belgilarni ta’riflaydi. O‘tgan dars bo‘yicha fikr almashiladi. Berilgan javoblarga qarab o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Eslatma: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda diqqat tarqoqligi kuzatilganda, dars jarayonida vaqtinchalik qo‘llanilayotgan didaktik materiallar bilan mustaqil tanishish imkoni beriladi.

Bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida suhbatlashish jarayonida ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Darslikning 8-sahifasidagi **“Bilimlar sari boshlar yo‘lga”** she’ri o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi. Rasm asosida maktab haqida olingan ma’lumotlar yuzasidan suhbatlashiladi. Suhbatda ishlatilgan har bir so‘z ma’nosiga alohida ahamiyat beriladi.

O‘quvchilar juftlikda ishlaydi.

Darslikda berilgan rasmga qarang va partadoshingizga rasmni gaplar bilan tasvirlab bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmni tasvirlashda qanday gaplar tuzdingiz?

O‘rtog‘ingiz tuzgan gapni aytib bering.

Kim ko‘proq gap tuzdi?

Qaysi gap sizga yoqdi?

Tuzilgan matn gaplarga ajratiladi. Gaplar esa so‘zlardan tashkil topishi aytiladi. O‘quvchilarga so‘z va uning chizmasi haqida ma’lumot beriladi. Berilgan chizma bitta so‘zni ifodalashi tushuntiriladi.

– bitta so‘zni ifodalaydi.

Doskada gap chizmasi qanday bo‘lishi tushuntiriladi. Gaplar xabar va so‘roq mazmunda bo‘lishiga misol keltirilishi va gap chizmaga mos bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim. Unda nutq matn gaplardan iborat ekanligi aytiladi.

Gapning chizmasi tahlil qilinadi. Chizmadagi gaplar nechta so‘zdan iborat ekanligi so‘raladi. Rasm asosida chizmaga mos gaplar tuziladi.

Darslikning 9-sahifada ko‘rsatilgan har bir predmetning nomi aytiladi va o‘quvchilardan nomi aytilgan predmetni ko‘rsatish yoki ushlashlari tushuntiriladi. Vazifasidan kelib chiqib ortiqcha rasm aniqlanadi va ta’riflanadi.

Ortiqchasini top o‘yini:

Mevalar va sabzavotlar mulyajidan foydalanib didaktik o‘yin o‘tkaziladi. Unda 3 ta meva 1 ta sabzavot ko‘rsatiladi va 3 ta sabzavot 1 ta meva. Uchinchi bor darslikda berilgan rasmlardan foydalaniladi.

Ortiqchasini toping va qolgan narsalar nomini bir so‘z bilan ifodalang.

Darslikda berilgan rasm asosida chizmaga mos gap tuziladi va uning chizmasini doskada o'quvchilar bilan birgalikda bajariladi.

Alifbe ijod daftar bilan ishlash:

Alifbe ijod daftari 5 betida berilgan rasmni bo'yang. Rasmlarni bo'yashda ko'k, yashil, jigarrang, sariq, qora ranglardan foydalanamiz. (O'qituvchi tomonidan rangli qalamlarning birma-bir rang nomlari aytilganda o'quvchilardan ko'rsatishlari so'raladi).

Agar sinfda ko'rishda muammosi bo'lgan o'quvchingiz bo'lsa mashq daftaridagi rasmni A4 formatda chiqarib berishingiz tavsiya etiladi. Bu o'quvchiga dars mashg'ulotini o'zlashtirishda qulaylik tug'diradi.

O'quvchilar topshiriqni to'liq yoki qisman bajarsalar ham o'zlariga nisbatan qiyoslanadi va rag'batlantiriladi.

Darsga yakun yasash:

Darsda sizga nimalar yoqdi?

Darsdan nimalarni eslab qoldingiz?

Kishilar suhbatini nima deyiladi?

Faol ishtirok etgan o'quvchilar ismi aytib rag'batlantiriladi.

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa.

O'quvchilarga o'tilgan darsni ota-onlari hamkorligida uyda bajarish ta'kidlanadi.

3-dars. Mening oilam. Alifbe qahramonlari bilan tanishuv haqida tushuncha darsi

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi. Uyga berilgan vazifa ustida ishlanadi va bu jarayonda ishtirok etgan bolalar rag'batlantiriladi.

Bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida suhbatlashish jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Tanishuv mashqi: *Bugun siz bilan “Tanishuv” mashqini o'tkazamiz. Men sizga biron – bir mevani nomini aytaman. Siz esa, agar shu mevani yoqtirsangiz ismingizni aytib o'rningizdan turing.*

Darslikning 10-sahifasidagi rasm asosida **“Oila”** haqida suhbat o'tkaziladi.

Rasmda kimlarni ko'ryapsiz?

Ular nima qilishyapti?

So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish mumkinligi tushuntiriladi. So'z chizmasi qanday bo'lishi esga olinadi doskada chiziladi. Uni qanday qilib chizmada so'zni bo'g'inga bo'lish ko'rsatiladi. Oila a'zolarini bildiruvchi so'zlar bo'g'inga bo'linadi.

Darslikdagi chizmaga mos gaplar tuziladi.

Bu bizning oila.

Oilamiz olti kishidan iborat.

Zahro Hasanovanning **“Oilam”** she'ri o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. She'r nima haqida ekanligi to'g'risida o'quvchilar bilan suhbatlashiladi. Sinfda o'qishni bilgan o'quvchilar bor bo'lsa ularga o'qib berish imkoni beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mavzuni mustahkamlashda

tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya qilinadi. **Masalan**, bobo, buvi, ota-ona, qiz va o'g'il bola rasmlari berilishi va rasmda boboni ko'rsat?

degan savol bilan o'quvchiga murojaat qilish mumkin.



Eslatma:

Intelektual muammosi bo'lgan o'quvchilar predmetlarni ko'rish, ushlash, hidlash hattoki mazza ta'mini tatib ko'rishlari mumkin. Bu ulardagi boshqa his tuyg'ular orqali o'zlaridagi bo'shliqlarini to'ldirishga olib keladi.

Intelektual muammosi bo'lgan o'quvchilardan vazifani to'liq ado etishini emas balkim bir ma'lumotni to'g'ri aytib yoki ko'rsatib berish kutiladi. Bunday o'quvchilardan tarqatma materiallar qisqa vaqtda qaytarib olinmaydi.

Darslikda berilgan alifbe qahramonlari bilan o'quvchilarni tanishtiriladi.

“Alifbe qahramonlari bilan tanishuv” jarayonini tashkil qilishda sinfdagi faol hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga “**Akmal**”, “**Aziza**”, “**Madina**”, “**Jasur**” ismlari qo'yiladi. Darslik bo'yicha ta'rif beriladi.

Akmal-atrofimizdagi olamni o'rganishga qiziqadi.

Aziza- matematika va sportni yaxshi ko'radi.

Madina- Akmal bilan egizak. U juda qiziquvchan va quvnoq.

Jasur-musika cholg'u asboslarini chalishni biladi.

Har bir bolaning ismi bo'g'inga ajratiladi.

Alifbe ijod daftarining 6-sahifasidagi “**Mening oilam**” mavzusida rasm chizish topshirig'i beriladi. Qaysi ranglardan foydalanish o'quvchilar xohishiga qo'yib beriladi. Shu jarayonda oila a'zolari haqida suhbatlashiladi.

Darsga yakun yasash:

Darsda sizga nimalar yoqdi?

Darsdan nimalarni eslab qoldingiz?

Bolajonlar siz qanday rasmlarni bo'yadingiz?

Faol ishtirok etgan o'quvchilar ismi aytib rag'batlantiriladi.

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 6-sahifasidagi “**Mening oilam**” mavzusida rasmini chizishni yakuniga yetkazish va bo'yash vazifasi beriladi.

4-dars. Unli va undosh tovushlar. Men va atrofimizdagi olam

Bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida suhbatlashish jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Uyga berilgan vazifa ustida ishlanadi va bu jarayonda ishtirok etgan bolalar rag'batlantiriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni og'zaki rag'batlantirib turish, ularning ruhiy holati ko'tarilishi va darsga qiziqishini orttiradi.

O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning diqqatini to'plash maqsadida o'nidan turishini va uning atrofidagi ikki nafar tengdoshlarini ismini aytishini so'raydi. Tengdoshlarini ismi yodidami yoqmi aniqlaydi, kerak bo'lsa yordam qiladi.

Qolgan qatorlari bilan ham xuddi shunday davom ettirish mumkin.

Bugun siz bilan “Tanishuv” mashqini o'tkazamiz. Birinchi qator o'quvchilari o'rnidan turadilar. Kim o'z qatoridagi o'quvchilar ismlarini nechtasini eslab qolgan bo'lsa aytadi. Qatordagi o'quvchilar o'z ismlarini eshitganlarida esa men deb joylariga o'tiradi.

Barcha o'quvchilarning diqqati bir joyga jamlangandan keyin o'qituvchi chapak, kulgi va kitob varaqlash ovozini bolalarga eshittiradi. Bolalardan eshitgan ovozlar rasmlarini bir varaqqa chizish so'raladi.

Ovozni qanday rasmlar bilan tasvirladingiz?

O'rtog'ingiz chizgan rasmlar siznikiga o'xshaydimi?

Kim chizgan rasm to'g'ri deb o'yladingiz?

O'quvchilarga ikki xil tovushlar o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rsatish uchun tarqatma materiallarda ikki xil rang ishlatiladi unli tovushlar qizil, undosh tovushlar esa ko'k rangda tayyorlanadi.



Meva (rasm) larni tarqatma material sifatida qo'llash orqali darslikning 12-sahifasidagi topshiriqlar bajariladi. Bunda o'qituvchi har bir rasmdagi meva nomlarini ovoz chiqarib aytadi va chapak chalish usuli bilan bo'g'inlarga bo'ladi. Bu usulni bolalar partasidagi mevaning nomini aytishlari va bo'g'inga bo'lishlari so'raladi. O'quvchilar juft bo'lib yoki yakka tartibda ishlashlari mumkin.

O'qituvchi darslikdagi topishmoqni ovoz chiqarib o'qib eshittiradi. Agar sinfda eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchi bo'lsa o'qituvchi o'quvchiga yaqin kelib topishmoqni o'qib beradi. Topishmoqni javobida qiynalmasligi uchun barmoq bilan kitobdagi rasimga ishora qiladi. O'quvchilar topishmoq javobini topgach bo'g'inlarga bo'lishni birga mashq qilishadi.



O'quvchilarga Alifbe ijod daftarining 7-sahifasidagi berilgan rasmlar orasidagi chizmaga mos bo'g'inli so'zlarni topish va agar unli bilan boshlansa qizil undosh bilan boshlansa ko'k rangda bo'yash topshirig'i beriladi. O'qituvchi eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchi bilan hamkorlikda bu mashg'ulotni o'tkazadi.

Darslikning 13-sahifasidagi rasmlarda qanday jarayonlar tasvirlanganligi o'quvchilardan so'raladi va ularda ifodalangan tovushlarni jo'r bo'lgan holda ovoz chiqarib aytishadi. Bu jarayonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar taqlid qilish orqali tengdoshlaridan o'rganadilar.

Rasmda berilgan hayvonlarning nomlarini kim bo'g'inlarga bo'lib aytib beradi? O'quvchiga javob berishdan oldin qo'l ko'tarishi ta'kidlanadi.

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Darsga yakun yasash:

Darsda sizga nimalar yoqdi?

Darsdan nimalarni eslab qoldingiz?

Bolajonlar siz qanday rasmlarni bo'yadingiz?

Faol ishtirok etgan o'quvchilar ismi aytib rag'batlantiriladi.


Uyga vazifa. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 7-sahifasidagi rasmni ifodalovchi so'zlarni bo'yash hamda qanday tovushlar bilan ifodalanganligini o'rganib kelish vazifasi beriladi.

5-dars. O tovush va Oo harflari

Darsga kirish qism avvalgi mavzularda ochib berilganligi sababli bundan keyingi mavzularda darsning borishidan boshlanadi.

Diqqat mashqi: O‘qituvchi ma’lum bir ketma - ketlikni hosil qilib chapak chaladi. Avval 2 ta chapak, so‘ng 3 ta chapak, keyin 4 ta chapak. O‘quvchilar avval eshitadilar so‘ng o‘qituvchi qanday chalgan bo‘lsa shunday qaytarib chaladilar.

Hozir siz bilan “Diqqat” mashqini o‘tkazamiz. Men chapak chalaman siz esa diqqat bilan eshitasiz, keyin xuddi mendek qilib qaytarib chapak chalib berasiz.



Darslikning 14-sahifasidagi QK orqali “O” unli tovushi talaffuzi o‘quvchilarga tinglatiladi. Barcha o‘quvchilar quyidagi ketma-ketlikda “Oo” unli tovushini talaffuz qiladi. Shu jarayonda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ishtiroki kuzatiladi.

O‘qituvchi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni bilish darajasini inobatga olib oldindan A4 formatdagi qog‘ozga chizilgan “Oo” unli harfi ustidan o‘quvchiga plastilin qo‘yib chiqib “O” unli harfini yasashni aytadi.

O‘qituvchi doskaga olma, olmaxon, oy rasmini qo‘yadi. O‘quvchilardan bu rasmlarni qanday xususiyati bir xil deb so‘raydi.

Doskadagi rasmlarga diqqat bilan qarang va ularni qanday xususiyati bir xil ekanligini toping.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmlarni qanday so‘zlar bilan ifodaladingiz?

Qanday xususiyatlari bir xil deb topdingiz?

Javoblarda faol bo‘lgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

O‘qituvchi [o] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklni ko‘rsatiladi) aytiladi.

Darslikning 14-sahifasidagi “Oo” unli tovushi so‘zning qaysi qismida ishtirok etganligiga alohida ahamiyat beriladi.

Alifbe ijod daftarining 8-sahifasidagi “Oo” unli harfi namunasiga qarab yoziladi va talaffuz qilinadi. Talaffuz qilish jarayonida og‘iz artikulyatsiyasidagi holatlar ta’riflanadi.



Darslikning 15-sahifasidagi “O” unli harf shaklidagi aylana ustida barmog‘ingizni yurgizing, rasmlar nomlarini navbati bilan nomini ayting.

O‘quvchilarda bu qiziqarli amaliy mashg‘ulotni bajarish bilan birga jumboqni yechish imkoni tug‘iladi.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Eslatma: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar topshiriq bajarishda xatoga yo‘l qo‘ysa, maqsadni o‘zgartirmasdan usulni o‘zgartirishingiz mumkin.

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Faol ishtirok etgan o'quvchilar ismi aytib rag'batlantiriladi.

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 8-sahifasidagi rasmlarni bo'yash va ularning vazifalarini bilish. Undan tashqari bo'sh joyga “Oo” unli harfiga o'xshash rasm chizish.

6-dars. T tovush va Tt harflari

Dars mashg'ulotlarini boshlashdan oldim o'qituvchi sinf qoidalarini o'quvchilarga eslatib o'tishi lozim. *Masalan biron bir shaxsiy ehtiyojingga yoki savollarga javob bermoqchi bo'lsangiz qo'lingizni ko'taring boshqalar diqqatini ovoz chiqarib bo'lish ma'qul harakat hisoblanmaydi.*

O'quvchilarning diqqatini to'plash va darsga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida **“Birgalikda kuylaymiz mashqi”** bajariladi. O'qituvchi har bir qator uchun bittadan notani aytadi, o'qituvchining qo'l harakatidan keyin o'quvchilar navbat bilan notani kuylash tushuntiriladi.

Eslatma:

Alohida ta'lim
ehtiyotlari bo'lgan
bolalar bilan
ishlashda avvalo
bolaning asl holati
kuzatilishi lozim.

Masalan: 1-qatordagilar **“do”**, 2-qatordagilar **“mi”**, 3-qatordagilar **“re”**. O'quvchilar bir necha marta kuylaganlaridan keyin shu notalar tezroq kuylanadi.

Uyga berilgan vazifa ustida ishlanadi va bu jarayonda ishtirok etgan bolalar rag'batlantiriladi.

Darslikning 16-sahifasidagi QK orqali **“T”** undosh tovushi talaffuzi o'quvchilarga tinglatiladi. Barcha o'quvchilar quyidagi ketma-ketlikda **“Tt”** undosh tovushini talaffuz qiladi. Shu jarayonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ishtiroki kuzatiladi.

O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni bilish darajasini inobatga olib oldindan tayyorlangan **“Tt”** undosh harf maketini o'quvchining qo'lga beradi. O'quvchi uni ushlab ko'rishi, qattiq yoki yumshoqligini aytishi, rangini taxmin qilishi mumkin.

O'qituvchi doskaga ot, it, o't rasmni qo'yadi. O'quvchilardan bu rasmlarni ifodalovchi so'zlarda oxirgi tovushini aniqlashni so'raydi.

Doskadagi rasmlarga diqqat bilan qarang va ularni ifodalovchi so'zlarni oxirgi tovushini aniqlang.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmlarni qanday so'zlar bilan ifodaladingiz?

Oxirida kelgan tovush qanday tovush ekan?

Shu tovush bilan boshlanadigan so'zlarga misol keltira olasizmi?

[t] undosh tovushlar ekanligi, undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab qisqa aytilishi, unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi. Undosh tovush ko'k rangda belgilanishini (ko'k kvadrat shaklni ko'rsatiladi) aytadi.

Tt harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko'rish mumkinligi va ularni o'qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o'qilishi, yozilishi va ularni ko'rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi tushuntiriladi.

Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi yoki o'qishni biladigan o'quvchilarga o'qitiladi. She'r mazmuni bo'yicha suhbatlashadi.

She'r nima haqida?

“Tt” harfi qaysi so'zlarda ishtirok etgan?

O'quvchilarga bo'g'in hosil qilish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi. Bola bir joydan ikkinchisiga yetib olguncha, avval [o] tovushi cho'ziq aytilib, so'ng [t] tovushini qo'shib aytiladi. Hosil bo'lgan bo'g'in o'qiladi. - **ot** bo'g'inini yopiq bo'g'in ekanligi aytiladi.



[t] undoshini samolyotning uchishi kabi tez talaffuz qilinib, unga [o] unlisi qo'shib aytilganda – **to** ochiq bo'g'inini hosil bo'lishi tushuntiriladi.

Tulki, to'ti hamda to'rt so'zlari bo'g'inlar yoziladi va har bir narsa haqida qisqa suhbat tashkil qilinadi.

Eng ayyor hayvonni bilasizmi?

Qaysi qush gapirishi mumkin? kabi savollar beriladi.

So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish va "**Tt**" undosh harfining o'rnini ko'k rang bilan bo'yash tavsiya etiladi. Alifbe ijod daftarining 9-sahifasidan "**Tt**" undosh harfini yozishni mashq qilish aytiladi.

Darslikning 16-sahifasidagi rasm asosida tez aytish mashqi xohlovchi o'quvchilar bilan o'tkaziladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning intellektual salohiyatidan kelib chiqib mavzuning maqsadidan uzoqlashmagan holda bir ko'nikma egallashlari inobatga olinadi. Darslikdagi barcha mashg'ulotlarni o'zlashtirishda yoki bajarishda qiynalishlari mumkin.

Rasm va she'r asosida poytaxtimiz Toshkent haqida aytiladi.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 9-sahifasidan "**Tt**" undosh harf bilan boshlanadigan rasmlarni belgilash.

7-8-dars. A tovush va A a harflari .STO‘

Darsga kirish qismida o‘quvchilarni yoqlama qilish, o‘tgan mavzu va bugungi kun haqida so‘rash bilan boshlanadi. Faol bo‘lgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Bu qiziq mashqi: O‘qituvchi bitta so‘z aytib uni rasmini ko‘rsatadi. O‘quvchilar shu so‘zning ikkinchi ma‘nosini topadilar. Ot -hayvon, o‘t-o‘simlik, yoz-fasl.

Hozir siz bilan “Bu qiziq” mashqini o‘tkazamiz. Men sizga so‘z aytib uni rasmini ko‘rsataman. Siz shu so‘zni yana qanday hollarda ishlatish mumkinligini topasiz.

Bu jarayonda ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Darslikning 18-sahifasidagi QK orqali “A” unli tovushi talaffuzi o‘quvchilarga tinglatiladi. Barcha o‘quvchilar quyidagi ketma-ketlikda “Aa” unli tovushini talaffuz qiladi.



Doskadagi rasmga diqqat bilan qarang va ularni qanday tovushni talaffuz qilayotganlarini toping.

Bola qanday tovushni talaffuz qilyapti deb o‘ylaysiz?

Rasmlarga qarab qanday gap tuzish mumkin?

O‘qituvchi [a] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklni ko‘rsatiladi) aytiladi.

O‘quvchilarga bo‘g‘in hosil qilish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi. Unda avval [a] tovushi cho‘ziq aytilib, so‘ng [t] tovushini qo‘shib aytiladi. Hosil bo‘lgan bo‘g‘in o‘qiladi. -at bo‘g‘ini yopiq bo‘g‘in ekanligi aytiladi.

[t] undoshini talaffuzi qilib turib, unga [a] unlisi qo‘shib aytilganda - ta ochiq bo‘g‘ini hosil bo‘lishi tushuntiriladi.

A	a	a	At	at
a	A	a	Ta	ta
a	A	A	Oa	oa

Aa harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishini ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Eslatma:

Alohida ta’lim
ehtiyajlari bo‘lgan
bolalaraga savol
berish imkoni
yaratilishi lozim.
Mashg‘ulot oxirida
kayfiyatiga mos
smaylikni tanlatish
orqali bolani darsga
bo‘lgan qiziqishini
aniqlash mumkin.

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg‘ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Sizda qo‘shimcha savollaringiz bo‘lsa menga berishingiz mumkin.

Alifbe ijod daftarining 9-sahifasida “Aa” unli tovushini yozish mashq qilinadi va yozish davomida talaffuz qilinadi.

Darslikda berilgan she’r ifodali o‘qib beriladi yoki o‘qishni biladigan o‘quvchilarga o‘qitiladi. She’r mazmuni bo‘yicha suhbatlashadilar.

She’r nima haqida?

Unda qaysi so‘zlarda [a] tovushi ishtirok etadi?

Siz yana qanday [a] tovushi qatnashgan soʻzlarni bilasiz?

Darslikning 18-sahifasida koʻrsatilgan rasmlar nomlanadi va har biriga taʼrif berilib chapak chalish bilan boʻgʻinlab aytiladi.

Gap tuzamiz mashqi: Oʻqituvchi doskaga 2 ta (1 ta bola va alohida 1 ta koptok) rasmlarini qoʻyadi. Shu rasmlarni ifodalovchi soʻzlarni bir biriga bogʻlab gap tuzishni soʻraydi. Masalan: bola va koptok.

Hozir siz bilan “Gap tuzamiz” mashqini oʻtkazamiz. Doskadagi rasmlarni ifodalovchi soʻzlarni bir biriga bogʻlab gap tuzing.

Gap chizmasiga mos “a” tovushi ishtirok etgan soʻzlardan gap tuzadilar.



Darslikning 19-sahifasidagi berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi moslashtiriladi. Ayiq, asal, ari, archa soʻzlarining chizmasi topib rasm bilan bogʻlanadi. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga bunday topshiriqlarni amaliy shaklda, oʻyin asosida oʻtkazilishi tavsiya etiladi. Rasmdagi (ayiq, asal, ari, archa) predmetlarni oʻyinchoq shaklda berilishi, nomlarni aytganda oʻquvchidan aynan nomi aytilgan predmetni koʻrsatishi soʻraladi va ragʻbatlantiriladi. Bunday oʻquvchilar oʻziga nisbatan baholanadi yaʼni kecha bilmagandi, bugun bildi, kecha bajara olmagan edi, bugun bajaraoldi kabilar.

Afsonaviy “**Alpomish**” haqidagi sheʼr ifodali oʻqib beriladi. Biror oʻquvchi namuna sifatida “Alpomish” deb nomlanadi va unga taʼrif beriladi. Berilgan taʼriflardan alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar eslab qolganini aytib berish soʻraladi.

Darsga yakun yasash:

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz oʻzingiz mustaqil bajara oldingiz?

Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?

Bugungi darsimiz sizga yoqdimi?

Sizda qoʻshimcha savollaringiz boʻlsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 10-sahifasidan “Aa” harfi oʻrnini topish va qizil rangga boʻyash vazifasi beriladi.

9-10-dars. N tovush va Nn harflari

Darsga kirish qismida o'quvchilarni yoqlama qilish, o'tgan mavzu va bugungi kun haqida so'rash bilan boshlanadi. Bu jarayonda ishtirok etgan bolalar rag'batlantiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarni kayfiyatini bilish uchun avvaldan partalariga qo'yilgan kayfiyatlariga mos smaylikni ko'rsatishlarini so'raydi. Natijaga qarab darsning asosiy qismini boshlaydi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ruhiy holati sabab dars mashg'ulotlarida shovqin solish, joyidan turib ketish holatlari kuzatilganda maktab amaliyotchi psixolog yoki maxsus pedagogni jalb etishingiz mumkin. Mutaxassislar o'quvchi bilan yonma yon o'tirishlari yoki korreksion xonada ular bilan mashg'ulotni davom ettirishlari lozim.

Izquvar mashqi: O'qituvchi ota so'zini aytadi. O'quvchilar shu so'zda nechta bo'g'in va nechta tovush bor ekanligini aniqlashlari kerak bo'ladi.

Hozir siz bilan "Izquvar" mashqini o'tkazamiz. Ota so'zida nechta bo'g'in va shu so'zda nechta tovush bor ekanligini aniqlang. Bo'g'inlar soniga mos ko'k kartochkalarizingizni, tovushlar soniga mos qizil kartochkalarizingizni ko'rsating.

Darslikning 20-sahifasidagi QK orqali "N" undosh tovushi talaffuzi o'quvchilarga tinglatiladi. Barcha o'quvchilar quyidagi ketma-ketlikda "Nn" undosh tovushini talaffuz qiladi. Shu jarayonda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning

ishtiroki kuzatiladi.

O'qituvchi [n] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi. Nok (*rasmi doskada ko'rsatiladi*) - nok so'zi bo'g'inga bo'linadi (bir bo'g'in), bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. "Nn" tovushi birinchi katakda ekanligini aniqlab shu katak ko'k rangga bo'yaladi.

O'qituvchi doskaga ota va ona rasmini qo'yadi. O'quvchilardan har ikkala rasmni ifodalovchi so'zni bo'g'inga bo'lib, tovushlarini alohida-alohida talaffuz qilishlarini aytadi. Talaffuz qilingan tovushlar orasidan hali o'tilmagan tovushni aniqlashni so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmni ifodalovchi so'zlarni ayting?

Birinchi so'z necha bo'g'indan iborat?

Ikkinchi so'z necha bo'g'indan iborat?

Birinchi so'z qanday tovushlardan iborat?

Ikkinchi so'z-chi?

Qaysi tovushni o'rganmaganmiz?

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Darslikdan “**Nn**” harfining bosma ko'rinishi bilan o'quvchilar tanishtiriladi. O'quvchilar qo'llariga sanoq cho'plarini olishlari aytiladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.


She'r nima haqida?

*Unda “**Nn**” harfi qanday hosil qilindi?*

Sanoq cho'plaringiz bilan she'rda aytilganidek qilib ko'ring-chi. Nima hosil bo'ldi?

O'qituvchi [n] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi. Unda avval [o] tovushi cho'ziq aytilib, so'ng [na] bo'g'inini qo'shib aytiladi. Hosil bo'lgan so'z – ona so'zi o'qiladi. Misollar bilan aniqlik kiritiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni dars mashg'ulotlarini bajarishda sustkashligi kuzatilsa ularga bir vazifa beriladi vaqt chegaralanmaydi.



Alifbe ijod daftarining 12-sahifasidagi topshiriqlar bilan ishlashda:

1. “**Nn**” harfi ko'k rangga bo'yaladi.

2. Ninachi va nilufar rasmlari bo'yaladi. Bu so'zlarning chizmasidan “**n**” tovushining o'rni aniqlanadi va katak bo'yaladi.


3. Berilgan namunadan bosma “**Nn**” harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yoziladi.

4. Rasmlarni ifodalovchi so'zlar necha bo'g'indan iborat bo'lsa, shuncha yulduzcha bo'yaladi. Masalan: nok so'zi bir bo'g'inli so'z bo'lgani uchun bitta yulduzcha bo'yaladi.

5. Shakllar orasida yashiringan harflar topiladi va bo'yaladi.

Sinfda yozishda qiynalayotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi bo'lsa bunday o'quvchi bilan ishlashda yozish ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim. Qo'shimcha predmetlardan foydalangan holda o'quvchi qo'llab quvvatlanadi.

Masalan: O'quvchini mayda qo'l matorikasini rivojlantirish va yo'naltiruvchi maxsus varoqdan foydalanib yozish ko'nikmasini shakllantirish.



Kim chaqqon mashqi: O'qituvchi doskaga kesma harflar yordamida o harfini va uni atrofiga na, ta, no, to, at, ot bo'g'inlar yozilgan kartochkalarni qo'yadi.

O'quvchilardan bo'g'inlarni o'qib o harfiga qo'shib o'qiganda so'z hosil qilish mumkin bo'lgan bo'g'inlarni tanlab olishni aytadi. O'quvchilar o'tirgan joylarida avval o'qiydilar. Kim topsa o'rnidan turib shu bo'g'inni qo'liga oladi.

O'qituvchi kesma harflar yordamida barcha o'tgangan harflari bilan so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so'zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

Boshqotirmaning yechishda mantiqiy fikrlash orqali o'quvchilardan harf bilan rasmni birlashtirish so'raladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda agar intellektual muammosi bo'lmasa ular bajara oladilar. Intellektual muammosi bo'lgan o'quvchilar uchun sodda mashqlar berilishi tavsiya etiladi.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 12-sahifasidagi shakllar orasidan yashiringan harflarni topish va bo'yash.

11-12-dars. I tovush va li harflari. STO‘

O‘quvchilardan bugungi taqvim so‘raladi. Davomat olinadi. Yangi mavzu bilan tanishtiriladi.

Uyga berilgan vazifasi ustida ishlanadi va bu jarayonda ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Diqqat mashqi: O‘qituvchi doskaga kesma harflar yordamida ot, non, ota, ana so‘zlarini yozadi. O‘quvchilar bu so‘zlarni ko‘rib olishlari uchun bir daqiqa vaqt beradi. So‘ng bu so‘zlarni o‘zgartiradi. On, non, ona, ana. O‘quvchilardan qaysi so‘zlar o‘zgarganini so‘raydi?

Hozir siz bilan “Diqqat” mashqini o‘tkazamiz. Men doskada yozilgan so‘zlarni bir daqiqa davomida qanday yozilganini eslab qoling. Endi esa o‘zgargan so‘zlarni toping.

Eslatma: Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda oddiy va sodda so‘zlardan, tasavvur qilishlarini osonlashtirish uchun ko‘rgazmali qurollardan ko‘proq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Darslikning 22-sahifasidagi QK orqali “Ii” unli tovushi talaffuzi qo‘yib beriladi va tushuntiriladi. O‘qituvchi alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni bilish darajasini inobatga olib oldindan tayyorlangan “Ii” unli tovushi maketini o‘quvchining qo‘liga beradi. Eshitgan ovozini takrorlashini aytib na‘muna sifatida o‘qituvchi “Ii” unli tovushini aytilishini og‘iz artikulatsiyasini o‘quvchiga ko‘rsatadi.

“Ii” unli tovushini tushuntirish maqsadida rasm asosida berilgan she‘r hamda to‘g‘ri talaffuz qilish sxemasi asosida ishlanadi. She‘rda ishtirok etgan “Ii”

unli tovushi bo‘g‘inlarga bo‘linib ma‘nosi tushuntiriladi.

Diqqat mashqi: O‘qituvchi doskaga kesma harflar yordamida ot, non, ota, ana so‘zlarini yozadi. Bu so‘zlarni ko‘rib olishlari uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Keyin bu so‘zlar o‘zgartiriladi. on, non, ona, ana. o‘quvchilardan qaysi so‘zlar o‘zgargani so‘raladi.

Alifbe ijod daftariga 14-sahifasidagi namunaga qarab “Ii” tovushi nuqtalarni birlashtirish orqali yoziladi.

O‘qituvchi doskaga ot va it rasmini qo‘yadi. O‘quvchilardan bu rasmlarni ifodalovchi so‘zlarda qanday tovush o‘zgarganini topishni aytadi. O‘quvchilar qanday tovush o‘zgargan bo‘lsa shu tovushni ifodalovchi harfni kesma harflaridan olib ko‘rsatadi.

Doskadagi rasmlarga diqqat bilan qarang bu so‘zlarni aytganda qanday tovush o‘zgarganini aniqlang.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmlarni ifodalovchi so‘zlarni ayting.

Birinchi so‘zda qanday tovush o‘zgardi?

[o] tovushi o‘rniga qanday tovush qo‘ydingiz?

Sizda qo‘shimcha savollaringiz bo‘lsa menga berishingiz mumkin.

“Ii” harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar

o'qilishi, yozilishi va ularni ko'rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi yoki o'qishni biladigan o'quvchilarga o'qitiladi. She'r mazmuni bo'yicha suhbatlashadilar.

She'r nima haqida?

Unda qaysi so'zlarda [i] tovushi ishtirok etadi?

She'rda i harfi haqida nima deyilgan?

Siz yana qanday [i] tovushi bilab qatnashgan so'zlarni bilasiz?

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga 2 ta rasm qo'yadi. Shu rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bog'lab gap tuzishni so'raydi.

Hozir siz bilan "Gap tuzamiz" mashqini o'tkazamiz. Doskadagi rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bog'lab gap tuzing.

"Ii" harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting?.

O'qituvchi kesma harflar yordamida barcha o'tangan harflari bilan so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing.

Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so'zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

O'qituvchi [i] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

"Ikki do'st" audio ertagi tinglanadi. Ertak mazmuni so'raladi.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?

Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 14-sahifasidagi rasmlarni Akmal bilan birgalikda bo'yashga yordamlashish va it, ot hamda in yozuvlarini nomlariga mos rasmlar bilan chiziq chizib birlashtirish zarurligi aytiladi.

13-14-dars. L tovush va LI harflari

O'quvchilardan bugungi taqvim so'raladi. Davomat olinadi. Yangi mavzu bilan tanishtiriladi.

Uyga berilgan vazifasi ustida ishlanadi va bu jarayonda ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Meni tushun mashqi: O'qituvchi [a,i,o] tovushlarini ovoz chiqarmasdan aytadi. O'quvchilar esa qanday tovushlarni talaffuz qilinganligini aytilgan ketma-ketlikda topishlari zarur bo'ladi.

Bugun siz bilan "Meni tushun" mashqini o'tkazamiz. Diqqat bilan menga qarab, qanday tovushni talaffuz qilayotganimni topishingiz kerak bo'ladi.

Darslikning 24-sahifasidagi QK orqali "L" undosh tovushi talaffuzi tinglatiladi. O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni bilish darajasini inobatga olib "LI" undosh tovushi o'quvchining yoniga borib og'iz artikulyatsiyasini va talaffuz qilishni amaliy ko'rsatadi.

O'qituvchi [li] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

O'qituvchi doskaga beshik tebratib o'tirgan ayol rasmini qo'yadi. O'quvchilardan ona qanday qo'shiq aytayotganini topishni va shu so'zda qanday tovushlar bor ekanini aniqlashni so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Ona qanday qo'shiq aytayapti?

Qo'shiqni nomida nechta tovush bor?

Qaysi tovushni siz bilan hali o'rganmaganmiz?

"LI" undosh harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

She'r nima haqida?

Unda "LI" harfi qaysi so'zlarda qatnashgan?

Lolalar so'zida nechta l harfi ishtirok etgan?

Siz "LI" harfining shaklini nimaga o'xshatdingiz?

	a	o	i
l	la	lo	li

tushuntiradi.

Qush nomlari orasida "L" tovushi ishtirok etganlarini topiladi (qaldirg'och, laylak, kaklik). Ko'rsatkich yo'nalishlari bo'ylab so'zlarni o'qing mashqi bajariladi.


1. "LI" harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga dars mashg'ulotlari jarayonlarida mavzuga doir bo'lmagan savollar berish imkoniyatini yarating. Bu harakatingiz bola uchun o'zini erkin his qilishiga olib keladi.

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali

2. Lola so'zining chizmasidan "LI" harfining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

3. Berilgan namunadan bosma "LI" harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng o'zlari yozing.



So'zlarni nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.


4. Bo'g'inlarni hosil qiling va yozing.

5. Nomi katakdagi chizmaga mos keladigan mevalarni toping.

Alifbe ijod daftarining 16-sahifasidagi namuna asosida "LI" tovushi yoziladi. Yozish jarayonida o'quvchilarning to'g'ri va tartibli bajarishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarga havoda ko'rsatkich barmoqlari bilan "LI" undosh harfini yozish taklif etilishi mumkin.

O'qituvchi ketma-ketlik asosida tartib bilan o'qiydi va ma'nosini tushuntiradi. Har bir gapning mazmunidagi o'zgarish haqida suhbatlashiladi.

Sherigimni top mashqi: O'qituvchi doskaga 2 ustunga bo'g'inlarni yozadi
1- ustun **to, lo, no**, 2-ustun **lo, li, la** bo'g'inlar yozilgan kartochkalarni qo'yadi. O'quvchilardan birinchi ustundagi bo'g'inlarga ikkinchi ustundagi bo'g'inlardan mosini topib so'z hosil qilishlarini so'raydi.



O'qituvchi kesma harflar yordamida o, n, i, t, l harflari bilan so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so'zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

Laylak(rasmi) - bo'g'inga bo'linadi 2 bo'g'in, 1-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. 2-bo'g'inda 3ta tovush. L harfining o'rnini 1-va 4-katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni ko'k rangga bo'yaladi.

Berilgan chizma asosida gaplar tuzing.

Har bir gap nechta so'zdan iborat ekanligi so'raladi. Gap tuzayotganda gap oxiridagi tinish belgilariga e'tibor qaratiladi.

Berilgan chizmaga qarab qanday gap tuzish mumkin?

Birinchi gapda qanday so'zlar berilgan?

Ikkinchi gap nechta so'zdan iborat?

Uchinchi gap oxiriga qanday belgi qo'yilgan?

Gaplarni quyidagicha tuzish mumkin:

- 1. Ali, Lola ko'kka boqdilar.*
- 2. Lola, ana laylaklar uchib ketmoqdalar.*
- 3. Ali, laylaklar qayerga uchmoqdalar?*

Darslikda berilgan rasm asosida o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi. Unda qanday fasl tasvirlangani, bolalar nimalar qilayotgani haqida so'raladi.

Darsga yakun yasash.

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 17-sahifasidagi rasmdagi Azizaga yordamlashish kerakligi aytiladi.

15-16-dars. M tovush va Mm harflari. STO‘

O‘quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo so‘raladi. Ko‘rgazmali qurollar asosida javoblar to‘ldiriladi. Davomat olinadi.

Uyga berilgan vazifasi ustida ishlanadi va bu jarayonda ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Izquvar mashqi: O‘qituvchi doskaga non, lola, innana rasmini qo‘yadi yoniga esa lola, non, innana so‘zlari yozilgan kartochkalar qo‘yiladi. O‘quvchilar esa rasmlarni o‘zi ifodalagan so‘zlar bilan birlashtirish so‘raladi.

Hozir siz bilan “Izquvar” mashqini o‘tkazamiz. Doskadagi rasmlarga qarang, ularni ifodalovchi so‘zlarni topib birlashtiring.

O‘qituvchi doskaga mushuk, sigir rasmini qo‘yadi. Shu hayvonlar qanday qilib tovush chiqarishlarini va ularni orasida qanday o‘xshashlik borligini aniqlashni so‘raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmda nimalar tasvirlangan?

Ular qanday ovoz chiqaradilar?

Bu ovozlar orasida qanday o‘xshashlik bor deb topdingiz?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Darslikning 26-sahifasidagi QK orqali “**M**” undosh tovushi talaffuzi tinglatiladi.

O‘qituvchi [m] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi.

Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.



Darslikdan “**Mm**” harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Ikkita do‘st keldik biz,
Qo‘lni qo‘lga berdik biz.
Qilmasdan kuchimiz sarf,
Yozildi **M** degan harf.

She‘r nima haqida?

Unda qaysi so‘zlarda [m] tovushi ishtirok etadi?

Siz yana qanday [m] tovushi bilan qatnashgan so‘zlarni bilasiz?

Partadoshingiz bilan M harfining ko‘rinishini hosil qilib bering.

O‘qituvchi “**M**” undosh tovushini o‘quvchilardan ovozlantirishlarini so‘raydi. Bu orqali alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bola ham ishtirok etish bilan birga tengdoshlariga taqlid qiladi.

	a	o	i
m	ma	mo	mi



“**M**” undosh tovushi hamda a, o, i unli tovushlari yordamida bo‘g‘in hosil qilinadi va talaffuz qilinadi. Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat

bilan o'qitiladi. Ko'rsatkich yo'nalishlari bo'ylab so'zlar o'qiladi va gap hosil qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan rasmdan **“m”** tovushi ishtirok etganlarning nomi ayting deb so'raladi va yordam sifatida o'qituvchi ko'rsatkich barmoq bilan aynan o'sha rasmni ko'rsatadi. Topilgan so'zlar (*muzqaymoq, mashina, mushuk, Akmal...*) ishtirokida gaplar tuziladi. O'quvchilar tuzgan gaplari nechta so'zdan iborat ekanligini aytadilar. Dostkaga bir nechta gap chizmasi chiziladi.

Alifbe ijod daftarining 18-sahifasidagi namuna asosida “Mm” harfini tegishli rangga bo'yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.

Mushuk so'zining chizmasida [m] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

Berilgan namunadan bosma “Mm” harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

Bo'g'inlarni nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

Rasmda berilgan harflarni namunada ko'rsatilgan tartibda bo'yang.

Men haqimda mashqi: O'qituvchi men so'zi bilan boshlanadigan ikkita gap tuzishni so'raydi.

O'qituvchi kesma harflar yordamida **“o”** harfi bilan boshlanadigan 4 ta harfdan iborat so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so'zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

Harflar tasmasidagi avvalgi darslarda o'tilgan harflar esga olinadi. Unli va undosh tovushlar so'raladi. O'qituvchi [m] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Dostkada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Mashina(rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 3-bo'g'in, 1-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo'g'inda 2 ta tovush. 3-bo'g'inda 2 ta tovush. **“M”** harfining o'rni 1-katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni ko'k rangga bo'yaladi.

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

“Moslashtiring” mashqi: Rasmni ifodalovchi so'zlar ularga tegishli chizma bilan bog'lanadi.

Darslikda berilgan she'rlarni o'qituvchi ifodali o'qib beradi va o'qishni biladigan o'quvchilar bo'lsa ularga ham o'qish imkonini beradi.

Metro haqida suhbat o'tkaziladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ko'proq suhbatlashing. So'zlashish odobini o'rgatish ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek bu jarayon ularga boshqalar bilan muloqot qilishda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi va jamiyatda o'z o'rnini topish uchun asos yaratadi.

Rasmda nima tasvirlangan?

Siz yashab turgan joyda metro bormi?

Bu transport turi haqida nimalar bilasiz?

Tinglab tushunish: “Mitti quyon” ertagi QR-kod orqali tinglanadi.

Ertak mazmuni yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

Berilgan bo‘g‘inni o‘qing. Unga shunday bo‘g‘in qo‘shingki so‘z hosil bo‘lsin. Topgan bo‘g‘inni bo‘sh katakka yozing. Olma, oltin, olma, amma.



“M” harfini to‘g‘ri yozilgan harflar bo‘ylab malinani oldiga ko‘rsatkich chizish orqali olib boring.

ota ↔ ato = ota ana ↔ ana = ana
1 2 3 3 2 1 1 2 3 3 2 1

lola non nom ona amma ilm
omma tol mana lol nina noma

Berilgan so‘zlarni chapdan o‘ngga va o‘ngdan chapga o‘qing. Agar 1 tarafga o‘qiganingizda so‘z hosil bo‘lsa shu so‘z tagiga bir chiziq, agar 2 tarafga o‘qiganda ham so‘z hosil bo‘lsa ikki chiziq chizing.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg‘ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o‘zingiz mustaqil bajara oldingiz?

Sizda qo‘shimcha savollaringiz bo‘lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 18-sahifasidagi rasmini namunaga qarab bo‘yang. “Mm” undosh harfidan boshlangan 5 ta so‘z o‘rganib kelish.

17-18-dars. U tovush va Uu harflari.

Bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida suhbatlashish jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Uyga berilgan vazifa ustida ishlanadi va bu jarayonda ishtirok etgan bolalar rag'batlantiriladi.

Davom ettiring mashqi: O'qituvchi doskaga A, L, N, T bosma harflarni oxirigacha yozilmagan holdagi ko'rinishini ko'rsatadi. O'quvchilardan bitta chiziqli chizib ularni harf hosil qilishlarini so'raydi.

Bugun siz bilan "Davom ettir" mashqini o'tkazamiz. Men doskada Yozuvli kartochkalar qo'ydim. Siz ularda diqqat bilan qarab, bir chiziqli chizish bilan harf hosil qiling.



O'qituvchi doskaga bo'rini uvillayotgan rasmini va o'rmonda adashib qolgan odamlar **a-u** deb chaqirayotgan rasm qo'yiladi. O'quvchilardan ular qanday ovoz chiqarayotganlarini aniqlashni so'raydi.

Doskadagi rasmlarga diqqat bilan qarang ular qanday ovoz chiqarishlarini aniqlang.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Bo'ri qanday ovoz chiqardi deb o'yladingiz?

Adashib qolgan odamlar-chi?

Adashgan odamlar [a] tovushidan keyin qanday tovushni aytadilar?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

O'qituvchi [u] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziqli aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklni ko'rsatiladi) aytiladi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

U tovushini talaffuzida lablar oldinga naychaga o'xshab chiqqan, tishlar birlashmagan bo'ladi, va ular lablar bilan bektiladi, tilning orqa qismi yumshoq tanglaygacha ko'tarilgan, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi, havo oqimi og'iz orqali o'tadi, tovush boylamlari birikib va tebranib ovoz hosil bo'ladi.

"Uu" harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko'rish mumkinligi va ularni o'qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o'qilishi, yozilishi va ularni ko'rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi yoki o'qishni biladigan o'quvchilarga o'qitiladi. She'r mazmuni bo'yicha suhbatlashadilar.

She'r nima haqida?

Qaysi so'zlarda Uu harfi ishlatilgan?

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ruhiy holati juda muhimligi sabab dars boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchi bilan suhbatlashishi o'quvchida psixologik sokinlik uyg'otadi.

Siz Uu harfining shaklini nimaga o'xshatdingiz?

Darslikdagi mashqlar navbati bilan bajariladi.

1. Berilgan so'zlarni ketma-ket o'qing va bo'g'inlarga ajrating. (un, u-ni, u-num, tu-tun);

2. Har bir bo'g'inda nechta tovush ishtirok etganini ayting;

3. Bo'g'in va so'zlarni o'qing;

4. Rasmda berilgan jonzotlarni nomlang. Nomlari orasida [u] tovushi ishtirok etganlarini ajrating.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola uchun bunday topshiriqlarni bajarishda qulaylik yaratish uchun juft bo'lib yoki guruhlarda ishlashni tashkil etish lozim.

O'qishni biladigan o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan topishmoq o'qiladi va javobi topiladi (uloq).

Rasm asosida **"Kun va tun"** mavzusida ertak tuziladi.

Kun va Tun aka-uka ekan. Ular juda ahil, bir-biriga juda mehribon. Ishlarini ham ketma-ketlikda bajarishar ekan. Agarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar gapirishda qiynalsa ularga puzzle berishingiz yoki plastilindan "U" harfini yasashni aytishingiz mumkin bo'ladi.


"Uu" harfini tegishli rangga bo'yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.

Uzum so'zining chizmasida u tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

Berilgan namunadan bosma Ii harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

Bo'g'inlarni yozing.

Rasmdagi u harfi ishtirok etgan so'zlarni belgilang.



Harflarni qo'shib o'qiymiz

mashqi: O'qituvchi doskaga birinchi ustunga a,i,o harflarini ikkinchi ustunga esa n, m, l harflarini yozadi. O'quvchilardan istalgan harflarni qo'shin bo'g'in hosil qilib o'qishni so'raydi.

Bugun siz bilan **"Bo'g'in hosil qilib o'qiymiz"** mashqini o'tkazamiz. Doskadagi ikki ustundagi harflarni bir biriga qo'shib bo'g'in tuzing.

O'qituvchi kesma harflar yordamida barcha o'rgangan harflari bilan 3 harfi 5 ta so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so'zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

O'qituvchi [u] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli

ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Uzum (rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 2 bo'g'in, 1- bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 1 ta tovush. 2- bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. uu harfi bu so'zda 1- va 3- katakda ekanligini aniqlab shu kataklarni bo'yaydi.

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

“Moslashtiring” mashqi: Rasmni ifodalovchi so'zlar ularga tegishli chizma bilan bog'lanadi (Uy, uzum, uloqcha).

Bo'g'inlar jadvalini tuzing.

	u		a		i		t		n		l
t	tu						o	ot			
n							u				

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?

Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. “Ur, to'qmoq” ertagini QK orqali eshitib, ertak davomini gapirib berish. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 21-sahifasidagi rasmni namunaga qarab bo'yang. “Uu” harfini o'rnini topib belgilang.

19-20-dars. D tovush va Dd harflari. STO‘

O‘quvchilardan bugungi taqvim so‘raladi. Davomat olinadi. Yangi mavzu bilan tanishtiriladi.

Uyga berilgan vazifasi ustida ishlanadi va bu jarayonda ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Izquvar mashqi: O‘qituvchi doskaga olma, lola, limon, ilon, nina rasmini qo‘yadi yoniga esa so‘zlari yozilgan kartochkalar qo‘yadi. O‘quvchilar esa rasmlarni o‘zi ifodalagan so‘zlar bilan birlashtirish so‘raladi.

Bugun siz bilan “Izquvar” mashqini o‘tkazamiz. Doskadagi rasmlarga qarang, ularni ifodalovchi so‘zlarni topib birlashtiring.

Amaliy topshiriq bajarish: O‘qituvchi doskaga dala, do‘ppi, deraza rasmini qo‘yadi. O‘quvchilardan bu so‘zlarni bir xil jihatlarini aniqlashni so‘raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmda nimalar tasvirlangan?

Ularni qanday bir xil xususiyatlari bog‘lab turadi?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

O‘qituvchi [d] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.



Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda “Dd” harfini eslab qolishlari uchun o‘quvchining o‘z qo‘lidan foydalanishini nazorat qilishingiz mumkin. So‘zlarni aytganda “Dd” harfi kelganida qo‘li bilan d harf shaklini qilishi aytiladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

D lablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin jipslashmagan, “D” tovushi unli “a”, “i”, “o”, “u” tovushlari bilan qo‘shib talaffuz etilganda tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlarga tiralib turadi.

Darslikdan “Dd” harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

She‘r nima haqida?

Unda qaysi so‘zlarda [d] tovushi ishtirok etadi?

Siz yana qanday [d] tovushi bilan qatnashgan so‘zlarni bilasiz?

Sizda qo‘shimcha savollaringiz bo‘lsa menga berishingiz mumkin.

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

Berilgan gaplar rasmlarni ifodalovchi soʻzlar bilan toʻldirilib oʻqiladi.

Matn nima ekanligini tushuntiriladi. Matn sarlavhasi nimani bildirishi aytiladi. Tavsiya etiladigan matn.

Dalada bugʻdoy pishdi. Bugʻdoy kombaynda oʻriladi. Otam daladan bugʻdoy oʻrib oladi. Bugʻdoy donidan un qilinadi. Undan non tayyorlanadi. Non dasturxonimiz koʻrki. Oʻqituvchi uchun eslatma:

Matn bu bir necha oʻzaro bogʻlangan gaplardan tuziladi. Matnga sarlavha qoʻyish mumkin.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. *Dd harfini tegishli rangga boʻyang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.*

2. *Dazmol soʻzining chizmasida [d] tovushining oʻrnini aniqlang va tegishli katakni boʻyang.*

3. *Soʻzlarni nuqtalar ustidan soʻng mustaqil yozing.*

4. *D tovushining oʻrnini topib, boʻyang.*

Oʻrtogʻimni bilaman mashqi:

Oʻqituvchi oʻquvchilardan oʻrtoqlari haqida bitta gap tuzib berishlarini soʻraydi.

Hozir siz bilan “Oʻrtogʻimni bilaman” mashqini oʻtkazamiz. Oʻz oʻrtogʻingiz haqida bitta gap tuzing.

Amaliy topshiriq bajarish:

Oʻqituvchi kesma harflar yordamida **d** harfi bilan boshlanadigan soʻz hosil qilishni soʻraydi.

Kesma harflaringiz yoramida oʻrgangan harflarimiz bilan soʻzlar tuzing. Tuzgan soʻzlaringizni partadoshingizga oʻqib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday soʻzlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday soʻzlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan soʻzlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan soʻzlar orasida yoʻq?

Oʻqituvchi [d] tovushini soʻzlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli

tovushlar toʻsiqqa uchramasligi, choʻziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda toʻsiqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda koʻk rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir soʻzni oʻquvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Doʻppi(rasmi) - boʻgʻinga boʻlinadi 2 boʻgʻin, 1-boʻgʻinda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. 2-boʻgʻinda 2 ta tovush. “**D**” harfining oʻrni 1-katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni koʻk rangga boʻyaladi.

Eslatma: Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar mavzularni tengdoshlariga nisbatan sekin oʻzlashtirishlari mumkin. Bunda maxsus pedagog oʻquvchi bilan qoʻshimcha individual mashgʻulotlar oʻtkazishi tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

“Moslashtiring” mashqi: Rasmni ifodalovchi soʻzlar ularga tegishli chizma bilan bogʻlanadi.

Ikkinchi boʻgʻinni topib, soʻz hosil qilinadi (dala, danak, dori, dona, bola, tola).

Berilgan soʻzlarni ketma-ket oʻqing.


Oʻqishni biladigan oʻquvchiga maqollar oʻqitiladi va mazmuni izohlanadi.

Oʻquvchilarga darslikning 30-betidagi rasmlardagi 10 ta farqni topish kerakligi aytiladi (rasmlar ekranda kattalashgan holatda koʻrsatiladi). Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar qiynalsalar rasmlarda nimani koʻryapsiz? Quyosh nima qilyapti? Degan mazmunda soddalashtirgan holda savol berishingiz mumkin.

1. Berilgan soʻzlarni chapdan oʻngga va oʻngdan chapga oʻqing. Agar 1 tarafga oʻqiganingizda soʻz hosil boʻlsa shu soʻz tagiga bir chiziq, agar 2 tarafga oʻqiganda ham soʻz hosil boʻlsa ikki chiziq chizing.

tol	↔	lot	=	tol	non	↔	non	=	non
1 2 3		3 2 1			1 2 3		3 2 1		
don		ota		mum	ona		alla		noma
omma		ilm		dod	lol		odam		dada

2. Berilgan rasmlar orasidan nomlari kataklarga mos keluvchilarni aniqlang.



3. Boʻgʻinlarni oʻqing va ikkinchi qatordan shu boʻgʻin oʻrnini toping.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashgʻulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik boʻldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz oʻzingiz mustaqil bajara oldingiz?

Sizda qoʻshimcha savollaringiz boʻlsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 23-sahifasidagi “Dd” harfini namunaga qarab chiroyli yozish.

21-22-dars. K tovush va Kk harflari

Diqqat mashqi: O'qituvchi ma'lum bir ketma - ketlikni hosil qilib qalamni partaga taqillatadi. Avval 2 ta, so'ng 3 ta, keyin 4 ta. O'quvchilar avval eshitadilar so'ng o'qituvchi qanday chalgan bo'lsa shunday qaytarib chaladilar.

Hozir siz bilan “Diqqat” mashqini o'tkazamiz. Men qalamni taqillatib ma'lum bir ketma-ketlikni hosil qilaman siz esa diqqat bilan eshitasiz, keyin xuddi mendek qilib qaytarib taqillatib berasiz.

O'qituvchi doskaga **ana** yoniga esa a.a deb yozadi. O'quvchilardan ana so'zidagi

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga topshiriq 2 va yoki 3 tadan oshmasligi maqul. Ular uchun 4 va undan ortiq topshiriq og'irlik qilishi va xatolar soni ko'payishiga olib kelishi mumkin.

[n] tovushining o'rniga shunday tovush qo'yishni so'raydi. Yangi hosil bo'lgan so'z oila a'zolarimizdan biri bo'lishini aytadi.

Doskada yozilgan ana so'zidagi n tovushini boshqa tovush bilan almashtirsangiz yangi so'z hosil bo'ladi. Bu so'z oila a'zolarimiz biri bo'ladi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so'z hosil qila oldingiz?

Aka so'zida “n” tovushini o'rniga qanday tovushni qo'yish kerak?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

O'qituvchi [k] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

K tovushini talaffuzida lablar biroz ochiq, harakatsiz, tishlar orasi bir oz ochiq, **K** tovushi unli “a”, “o”, “u”, “i” tovushlari bilan talaffuz etilganda til uchi pastga tushgan bo'ladi va pastki kurak tishlarga bir oz yetmay turadi. **K** tovushi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi.

Darslikdan Kk harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

She'r nima haqida?

Qaysi so'zlarda k harfi bir marta uchragan?

Ikki marta k harfi uchragan so'zlarni ayting.

Qaysi so'zda Kk harfi uch marta qo'llanilgan?

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Darslikdagi gaplar o'qitiladi. Matndagi tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib o'qib beriladi. Matnga sarlavha qo'yiladi.

Rasmga qarab savol bering.

Kit-nima?

Malika-kim?

Kaktus –nima?

Kishilarga kim? O'simlik va hayvonlarga esa nima? deb savol beriladi. Siz ham shunday so'zlarga misol keltira olasizmi?

O'quvchilar misollar keltiradi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Kk harfini tegishli rangga bo'yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.

2. Kapalak so'zining chizmasida [k] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

3. Berilgan namunadan bosma Kk harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng o'zlari yozing.

4. So'zlarni nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

5. So'zlarning nomlarini ayting va ularni so'z chizmasiga mos bo'yang.

Birgalikda kuylaymiz mashqi: O'qituvchi o'quvchilar bilan musiqiy notalarni kuylaydi do re mi fa sol lya si so'raydi. Ularni bir necha bor turli ketma ketlikda kuylash mumkin.

Hozir siz bilan "Birgalikda kuylaymiz" mashqini o'tkazamiz.

O'qituvchi kesma harflar yordamida k harfi bilan boshlanadigan so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so'zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

O'qituvchi [k] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

kamalak(rasmi) - bo'g'inga bo'linadi 3 bo'g'in, 1-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo'g'inda 2 ta tovush. 3-bo'g'inda 2 ta tovush K harfining o'zni 1- va 6- katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni ko'k rangga bo'yaladi.

1. Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

"Moslashtiring" mashqi bajariladi. Rasmni ifodalovchi so'zlar ularga tegishli chizma bilan bog'lanadi (kema, koinot, kometa).


2. Berilgan so'zlarni ko'rsatkich bo'ylab o'qing.

3. Rasm asosida kichik matn tuziladi. Bu matnga **"Kitobxon bola"** kabi sarlavha qo'yish kitobni o'qiganda qanday qoidalari borligi haqida suhbatlashish tavsiya etiladi.

Maqollar o'qiladi va mazmuni izohlanadi.

Po'lat Mo'minning **"Kitob o'qigan bola"** she'ri o'qib beriladi. Undan o'rganilgan harflarni topish maqsadga muvofiq bo'ladi.

*Madina bilan chizmadagi barcha **K** harfini toping.*



Berilgan soʻzlarda tushirib qoldirilgan harfni toping. Topgan harflaringizni ikkalasini ham boʻsh katakka qoʻyganda soʻz hosil boʻlsin (Kon, non, kalta, katta, tun, kun).


Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashgʻulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz oʻzingiz mustaqil bajara oldingiz?

Sizda qoʻshimcha savollaringiz boʻlsa menga berishingiz mumkin.



Uyga vazifa. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 25-sahifasidagi rasmlarga qarab predmetlar nomini ayting va ularni boʻyang.

23-24-dars. O‘ tovush va O‘o‘ harflari.

Bu qiziq mashqi: O‘qituvchi o‘quvchilardan kishilar ismini so‘raydi. Faqat bu ismlarni biz narsalar nomida ham uchratishimiz mumkin bo‘lishini aytadi.

Hozir siz bilan “Bu qiziq” mashqini o‘tkazamiz. Shunday kishilar ismini ayting. Uni narsalar nomiga ham qo‘llash mumkin bo‘lsin.

Juftlikda ishlash:

O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hikoya aytadi. Uch guruh bolalari sayohatga chiqdilar. 1- guruh bolalar do‘konga, 2- guruh bolalari shirinliklar sotadigan oshxonaga, 3- guruh bolalari esa rasmlar ko‘rgazmasiga bordilar. Uch guruh bolalari ham borgan joylariga kirishlari bilan hayratlandilar, ammo so‘z aytmay o‘z hayratlarini tovush bilan bildirdilar. Juftlikda hikoyani faraz qilib shu tovushni topishni so‘raydi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun bunday aktiv va rolli o‘yinlarni ko‘proq tashkil etish ularda ijobiy ta‘sir uyg‘otadi, tushunadi, darsga qiziqadi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Partadoshingiz bilan qayerga g‘oyibona sayohat qildingiz?

Borganda hayratlanib qanday so‘z aytish mumkin edi?

Bu so‘z o‘rniga qanday tovushni ishlatsa bo‘ladi?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

O‘qituvchi [o‘] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini (*qizil kvadrat shaklni ko‘rsatiladi*) aytiladi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

“O” tovushini talaffuzida lablar oldinga naychaga o‘xshab chiqqan, tishlar birlashmagan bo‘ladi, va ular lablar bilan bekitiladi, tilning orqa qismi yumshoq tanglaygacha ko‘tarilgan, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi, havo oqimi og‘iz orqali o‘tadi, tovush boylamlari birikib va tebranib ovoz hosil bo‘ladi.

“O‘o” harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi, tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi yoki o‘qishni biladigan o‘quvchilarga o‘qitiladi. She‘r mazmuni bo‘yicha suhbatlashadilar.

She‘r nima haqida?

Unda O‘o‘ harfi nimaga o‘xshatilgan?

Siz O‘ harf shaklini nimaga o‘xshatdingiz?

Darslik bilan ishlash:

1. Berilgan bo‘g‘in va so‘zlarni ketma-ket o‘qing.

2. Aka va uka suhbatlari o'qitiladi. Berilgan rasmlarni so'zlar bilan ifodalab, gap chizmasiga mos so'zlar bilan to'ldiriladi.

Aka, ana u ni-ma?

O'k-tam, u kat-ta, ko'm-ko'k ko'l.

Un-da ana u ni-ma?

U o'rdak.

O'rdak ko'l-da ni-ma qilyapti?

U ko'l-da suzyapti.

Ma-na, kat-ta ko'm-ko'k ko'l.

Ko'l-da o'rdak bolalari bor.

Nutqimiz ikki xil holda bo'ladi. Kishilar bir- birlari bilan suhbatlashib o'z fikrlarini bayon etadilar. Bir kishi suhbatlashmasdan o'z bilganlarini bayon etishi ham mumkin.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. "O'o'" harfini tegishli rangga bo'yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.

2. O'rdak so'zining chizmasida [o'] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

3. Berilgan namunadan bosma "O'o'" harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

4. So'zlarni nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

5. Rasmda berilgan harflarni namunada ko'rsatilgan tartibda bo'yang.

Mendan so'ra mashqi: O'qituvchi o'quvchilardan so'roq gap tuzishni so'raydi.

Hozir siz bilan "Mendan so'ra" mashqini o'tkazamiz. Siz istalgan mavzuda so'roq gap tuzasiz. O'rtoqlaringiz esa unga javob beradilar.

O'qituvchi kesma harflar yordamida o harfi va "o'" harfi bilan boshlanadigan 5 ta so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so'zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

O'qituvchi [o'] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning rivojlangan qobiliyatlari orqali ta'limga jalb qilish muhim. Rasm chizishni yo'qtirgan bolaga harflarni rasmni chizish topshirig'i berilishi, yasashni yoqtirgan o'quvchiga lego yoki mayda detallardan harf yasash topshirig'ini berilishi mumkin.

Oʻrdak (rasmi) - boʻgʻinga boʻlinadi 2 boʻgʻin, 1- boʻgʻinda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2- boʻgʻinda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. “O” harfi bu soʻzda 1-katakda ekanligini aniqlab shu kataklarni boʻyaydi.

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

“Moslashtiring” mashqi bajariladi. Rasmni ifodalovchi soʻzlar ularga tegishli chizma bilan bogʻlanadi (oʻt, oʻrdak, oʻsimlik).

1. Berilgan soʻzlarni navbat bilan ketma-ket oʻqing.

2. Soʻzlarni koʻrsatkich boʻylab oʻqing.

Koʻk, koʻl, nol, kon.

Toʻla, alla, amma, toʻda.

Toʻnka, amaki, toʻnli, ilmi.

3. Soʻzlardagi xatoliklarni toping va ularni toʻgʻrilang (doʻlana, toʻti, toʻnka).

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Pufaklar ichida berilgan boʻgʻinlarni oʻqing. Ularni ochiq va yopiq boʻgʻinlarga ajratib boʻyang.

2. Namunaga qarab harflarning atrofiga tegishli shaklni chizing.



3. Rasmlarni ifodalovchi soʻzlarda nechta boʻgʻin boʻlsa, shuncha yulduzchani boʻyang.



Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashgʻulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz oʻzingiz mustaqil bajara oldingiz?

Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?

Sizda qoʻshimcha savollaringiz boʻlsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa beriladi. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 26-27 sahifalaridagi berilgan topshiriqlarni tamomlash.

25-26-dars. B tovush va Bb harflari. STO‘

Diqqat mashqi: O‘qituvchi doskaga n, m, d, l harflarini bir necha marta turli xil rangda ko‘rinishda yozadi. Ular orasida xatolari ham bo‘lishi kerak.

Hozir siz bilan **“Diqqat”** mashqini o‘tkazamiz. Duskada yozilgan harflar orasidan to‘g‘ri yozilganlarini toping.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘qituvchi doskaga bola va lola rasmini qo‘yadi. O‘quvchilardan shu so‘zlarni ifodalovchi so‘zlarda qanday tovush o‘zgarganini so‘raydi.

Duskadagi rasmlarga qarang. Ularni so‘z bilan ifodalang. So‘zlarda qaysi tovush o‘zgarganini toping.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmni qanday so‘z bilan ifodaladingiz?

Lola so‘zidagi qaysi tovush o‘zgardi?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

O‘qituvchi [b] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.



Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda **“Bb”** harfini eslab qolishlari uchun o‘quvchining o‘z qo‘lidan foydalanishini nazorat qilishingiz mumkin. So‘zlarni aytganda **“Bb”** harfi kelganida qo‘li bilan **b** harf shaklini qilishi aytiladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

“B” tovushini talaffuzida lablar tinch holatda birikkan bo‘lib, havo chiqishi bilan birdaniga ochiladi, tish qirralari orasidagi masofa va tilning holati B tovushidan keyin keladigan unli tovushga bog‘liq bo‘ladi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi. Havo oqimi og‘izdan o‘tadi, tovush boylamlari birikkan bo‘ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

Darslikdan **“Bb”** harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

She‘r nima haqida?

B harfi nimaga o‘xshatilgan?

[b] tovushi bilan boshlanadigan qanday so‘zlar bor?

b harfi bilan boshlanadigan qanday so‘zlarini bilasiz?

O‘qituvchi duskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

Matndagi tushurib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘yib o‘qib beriladi.

Matnga sarlavha qo'yiladi (Bilimli bola).

Bu – Ak-mal. U – bi-lim-li, o-dob-li bo-la.

Ak-mal mak-tab-da bi-lim o-la-di. U do-i-mo ki-tob o'qiydi.

Ki-tob – bi-lim ma-ko-ni.

Tinglab tushunish: “Bo‘ri bilan tulki” ertagi tinglanadi. Uning qahramonlariga ta’rif beriladi.

Daftar bilan ishlash:

1. “**Bb**” harfini tegishli rangga bo‘yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.

2. Baliq so‘zining chizmasida [b] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli katakni bo‘yang.

3. Berilgan namunadan bosma Bb harfining bosh va kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan so‘ng o‘zlari yozing.

4. So‘zlarni nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.

5. “**B**” harfining o‘rnini aniqlang ba shu katakni bo‘yang.

Kim chaqqon mashqi: O‘qituvchi sinf devorlariga bo‘g‘inlar yozilgan kartochkalarni olib qo‘yadi. Duskaga qizil va ko‘k rangli kartochkalarni qo‘yadi. O‘quvchilardan bo‘g‘inlarni o‘qib ochiq bo‘g‘inli kartochkalarni olgan o‘quvchilar qizil, yopiq bo‘g‘inli kartochkalarni olgan o‘quvchilar esa ko‘k rang oldiga tez kelib turishlarini so‘raydi.

Eslatma: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda yozish va chizishda qiyinchilik tug‘ilganda bolani mayda qo‘l matorikasini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Bulardan ipga mo‘nchoq o‘tkazish, cho‘pakchaga makaron o‘tkazish, havoda harflarni yozish, pantosga sepilgan qum yoki unda shakllar chizish kabilardir.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘qituvchi kesma harflar yordamida b harfi bilan boshlanadigan 5 ta so‘z hosil qilishni so‘raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o‘rgangan harflarimiz bilan so‘zlar tuzing. Tuzgan so‘zlaringizni partadoshingizga o‘qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so‘zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so‘zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so‘zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so‘zlar orasida yo‘q?

O‘qituvchi [b] tovushini so‘zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to‘siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko‘k rang bilan berilishi aytiladi.

Duskada bir so‘zni o‘quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

banan(rasmi)- bo‘g‘inga bo‘linadi 2 bo‘g‘in, 1-bo‘g‘inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo‘g‘inda 2 ta tovush. B harfining o‘rni 1- katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni ko‘k rangga bo‘yaladi.

Darslikda berilgan rasm asosida so‘z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

“Moslashtiring” mashqi bajariladi. Rasmni ifodalovchi so‘zlar ularga tegishli chizma bilan bog‘lanadi (*bog‘, bulut, baliq, bulbul*).

Darslik bilan ishlash:

1. So‘zlarni ketma-ket o‘qing.

2. Maqolni tushurib qoldirilgan so‘zini qo‘yib o‘qing.

O-na bi-lan bo-la – gul bi-lan lo-la.

3. Berilgan so‘zlarni ko‘rsatkich bo‘ylab o‘qing.

Kun, tun, non, to‘n, kon, don...

Rasm asosida kichik suhbat o‘tkaziladi.

Rasmda kimlar tasvirlangan?


Ular nima qilishyapti?

Kitob o‘qishning qanday foydasi bor?

O‘qishni biladigan o‘quvchi maqollarni o‘qiydi. Maqol mazmuni izohlanadi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

Nuqtalarni raqamlar ketma-ketligida birlashtirib, so‘zni o‘qing. (bilim)



“BILIMDONLIK” so‘zdagi harflardan yangi so‘zlar tuzib yozing. Bil, il, bilim, don, ilm, bol, nol, olim kabi so‘zlarni tuzish mumkin.

Bo‘g‘inlarni o‘qing ularni ochiq va yopiq bo‘g‘inlarga ajratib bo‘yang.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg‘ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o‘zingiz mustaqil bajara oldingiz?

Sizda qo‘shimcha savollaringiz bo‘lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 29-sahifadagi Pomidorga ochiq va yopiq bo‘g‘inlarni to‘g‘ri topish va mos ranglarga bo‘yashda yordam qilish.

27-28-dars. E tovush va Ee harflari. STO‘

Bu qiziq mashqi: O‘qituvchi doskada yozilgan so‘zlarni odiga va orqaga o‘qishni aytadi. **Nok, kit, non, tut, kut.**

Hozir siz bilan “Bu qiziq” mashqini o‘tkazamiz. Shunday doskada yozilgan so‘zlarni o‘qing. Endi shu so‘zlarni teskarisiga o‘qing.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hikoya aytib beradi. Nargiza onaning egizak farzandlari bo‘r ekan. Ularni biri mehnatkash, chaqqon, odobli doim onasi biron gap aytsa, yoki ish buyursa ho‘p bo‘ladi deb aytar ekan. Ikkinchisi esa dangasa, ishyoqmas va qo‘pol ekan. Uni onasi chaqirsa, yoki biron ish buyursa doim bir xil javob berar ekan. Uning javobi ham dangasaga xos birgina tovushdan iborat ekan. O‘quvchilardan dangasa bolaning javobini so‘raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Ertakda nechta bola qatnashdi?

Birinchi farzand onasiga doim nima deb javob berar edi?

Ikkinchi bola qanday edi?

U onasining gaplariga qanday javob berar edi?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

O‘qituvchi [e] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklni ko‘rsatiladi) aytiladi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

“E” tovushini talaffuzida lablar jilmaygan(kulgan), tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birlashmagan, oldingi tishlar ko‘rinib turgan, tilning keng uchi pastki tish qirralariga tegib turgan, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan, burun yo‘llarini yopib turgan hamda havo oqimi og‘iz orqali o‘tib ketadigan, tovush bog‘lamlari birikkan, tebranib tovush hosil qiladigan holatda bo‘lib turishiga e‘tibor berish kerak.

“Ee” harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi yoki o‘qishni biladigan o‘quvchilarga o‘qitiladi. She‘r mazmuni bo‘yicha suhbatlashadilar.

She‘r nima haqida?

She‘rda “Ee” harfi qaysi so‘zlarda uchragan?

Siz “E” harf shaklini nimaga o‘xshatdingiz?

Darslik bilan ishlash:

1. Berilgan bo‘g‘in va so‘zlarni ketma-ket o‘qing.

2. Dialog o‘quvchilarga o‘qitiladi.

*Ma-di-na un e-la-di.
Un-ni ni-ma-da e-la-di?
Bu-ni O-ta-bek bi-la-di.
U un-ni e-lak-da e-la-di.*

3. Rasmlar asosida ertaklar nomini ayting va yoqtirgan ertagingizni soʻzlab bering. Partadoshingizga sevimli ertak qahramonlaringizni ayting.

Oʻqituvchi uchun eslatma:

Ertak qahramonlarini nomini aytganda avval ertak nomi eslatilishi kerak boʻladi. Bu qahramonning qanday ekanligi uni ertakdagi gaplari ham eslatish tavsiya etiladi. Darslikdan tashqari shu ertakda ishtirok etgan qahramonlarning rasmini koʻrsatish tavsiya etiladi.

Daftar bilan ishlash:

1. “**Ee**” harfini tegishli rangga boʻyang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.

2. Eshik, etik soʻzining chizmasida [e] tovushining oʻrnini aniqlang va tegishli katakni boʻyang.

3. Berilgan namunadan bosma “**Ee**” harfining bosh va kichik koʻrinishini avval nuqtalar ustidan soʻng mustaqil yozing.

4. Boʻgʻin va soʻzlarni avval nuqtalar ustidan soʻng mustaqil yozing.

5. “**E**” harfining oʻrnini topib, boʻyang.

Gap tuzamiz mashqi: Oʻqituvchi doskaga kuz tasvirini qoʻyadi. Oʻquvchilardan rasmga qarab soʻroq gap tuzishlarini soʻraydi.

Hozir siz bilan “**Gap tuzamiz**” mashqini oʻtkazamiz. Doskadagi “**Kuz manzarasi**” rasmi mavzuda soʻroq gap tuzing. Oʻrtoqlaringiz esa unga javob beradilar.

Oʻqituvchi kesma harflar yordamida **e** harfi bilan boshlanadigan 4 ta harfli 3 ta soʻz hosil qilishni soʻraydi.

Kesma harflaringiz yordamida oʻrgangan harflarimiz bilan soʻzlar tuzing. Tuzgan soʻzlaringizni partadoshingizga oʻqib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday soʻzlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday soʻzlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan soʻzlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan soʻzlar orasida yoʻq?

Oʻqituvchi [e] tovushini soʻzlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar toʻsiqqa uchramasligi, choʻziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda toʻsiqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda koʻk rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir soʻzni oʻquvchilar bilan birga muhokama qiladi.

beshtik (rasmi) boʻgʻinga boʻlinadi 2 boʻgʻin, 1-boʻgʻinda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-boʻgʻinda nechta tovush borligini aniqlaydi.

3 ta tovush. **E** harfi bu soʻzda 2- katakda ekanligini aniqlab shu kataklarni boʻyaydi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

“Moslashtiring” mashqi bajariladi. Rasmni ifodalovchi soʻzlar ularga tegishli chizma bilan bogʻlanadi (Elak, eshak, echki, ellik).

1. Berilgan soʻzlarni navbat bilan ketma-ket oʻqitiladi.

Berilgan gaplar navbatma-navbat oʻqitiladi. Gaplarning tinish belgisiga eʼtibor qaratiladi. Soʻroq gaplarning ohangi ustida ishlanadi.

Eslatma: Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar bilan ishlashda: Oʻqituvchi maktab psixologi, maktab tibbiy xodimi, maxsus pedagog hamda ota-onalar hamkorligida ishlashni kuchaytirish lozim.

Ana kema keldi.

Kemada Elbek keldi?

Elbek nima olib keldi?

Elbek toʻti olib keldi.

2. Rasm asosida sheʼrga mos soʻzni topib davom ettiring.

Nuqtalar oʻrniga mos soʻzni qoʻyib sheʼr oʻqituvchi yoki oʻqishni biladigan oʻquvchi tomonidan oʻqib beriladi.

Kimki kelsa mehmonga,

Oʻtadi men tomonga.

Tutqichimdan ushlaydi,

Soʻngra qadam tashlaydi.

Gʻirchillab, aytib qoʻshiq,

Sizga ochilar


3. Topgan soʻzlaringizni tovushlar sonini aniqlang [eshik].

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Harflardan boʻgʻinlar jadvalini tuzing va jadvalni toʻldiring.

2. Rasmlardan **ke, me, be** boʻgʻinlari bilan boshlanadigan soʻzlarni toping.

3. E harfini toʻgʻri yozilgan harflar boʻylab eman daraxti oldiga koʻrsatkich chizish orqali olib boring.



Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashgʻulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz oʻzingiz mustaqil bajara oldingiz?

Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?

Sizda qoʻshimcha savollaringiz boʻlsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa beriladi. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 30-31 sahifalardagi tugatilmagan mashqlarni bajarish.

29-30-dars. Y tovush va Yy harflari

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda ijod daftarining 31-sahifasidagi to'g'ri yozilgan "E" harfini bo'yash yuzasidan berilgan vazifa so'raladi va o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Kim biladi mashqi: O'qituvchi doskaga navbat bilan **b, d, k, t, l** harflarini yozadi. O'quvchilardan oq qog'ozga shu harflarning bosh ko'rinishini yozib ko'rsatishlarini so'raydi.

Hozir siz bilan "Kim biladi" mashqini o'tkazamiz. Doskada yozilgan harflar bosh harf ko'rinishini qog'ozga yozib ko'rsating.

O'qituvchi doskaga bola dasturxon atrofida o'tiribdi unga esa atrofida ol yegin degan ma'noda bildirgan holda harakat qilgan rasmni qo'yadi. O'quvchilardan bolaga oila a'zolari nima deganlarini bitta tovush bilan ifodalashini so'raydi.

Doskadagi rasmlarga qarang. Ularni so'z bilan ifodalang. Oila a'zolari bolaga taomlardan ol so'zini o'rniga bir tovush bilan ifodalangan so'zni aytadilar. Shu so'zni toping.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmni qanday ifodaladingiz?

Taomdan ol deyishni o'rniga nima deyish mumkin?

Siz bu tovushni kimlardan eshitgansiz?

Bu tovushni to'liq qilib aytganda qanday so'zni aytish mumkin?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

O'qituvchi [y] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikning 40-sahifasidagi "Y" undosh tovushining talaffuzi **QK** orqali qo'yib beriladi va o'qituvchi tomonidan amaliy ko'rsatib mustahkamlanadi.

O'qituvchi uchun eslatma:

Y tovushini talaffuzida lablar tishlarga yaqinlashgan bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo'ladi, til uchi pastki kurak tishlarining orqasida turadi: tilning yon qirralari kurak tishlariga ichki tomondan siqilgan bo'ladi, til kuragining o'rta qismi qattiq tanglayga ko'tariladi va ikkalasining orasida tirqish hosil bo'lib, o'pkadan chiqayotgan havo shu tirqishdan o'tadi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib qo'yadi. Chiqayotgan havo og'iz orqali o'tadi, tovush bog'lamlari bog'langan bo'ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

Darslikdan "Yy" harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Asli juda ko'p bo'lar.

Daraxtlarda "Y" harfi.

Ham cho‘zmani eslatar,
Ayri shox – shoxlar ayri.

She’r nima haqida?

Y harfi nimaga o‘xshatilgan?

Siz ham daraxtda shunday ayrilarni ko‘rganmisiz?

Sanoq cho‘plaringiz yordamida y harfini yasay olasizmi?

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

Yelkanli kema matnini bo‘g‘inlab o‘qiladi.

Eslatma: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar baholashda iqtidori, imkoniyatidan kelib chiqqan holda baholash tizimidan foydalanish kerak.

Bo-bom kat-ta yel-kan-li ke-ma o-lib kel-di.

Men u-ni o‘y-nay-man.

“Yel-kan-li ke-ma yel-ka-ni ma-to-dan ti-ki-la-di”, – dey-di bo-bom.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. “Yy” harfini tegishli rangga bo‘yang.

Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.

2. Yulduz so‘zining chizmasida [y] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli katakni bo‘yang.

3. Berilgan namunadan bosma “Yy” harfining bosh va kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan so‘ng o‘zlari yozing.

4. So‘zlarni nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.

5. Raqamlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘yib, so‘zlarni toping. (kiyik, laylak, yelim).

3	4	2	5	1			1	3	4	2	6	5			2	1	3	5	4
Y	I	I	K	K			L	Y	L	A	K	A			E	Y	L	M	I

6. Rasmni bo‘yang va ularning nomlarini kataklarga yozing (uy, tuya).

Kim chaqqon mashqi: O‘qituvchi doskaga o‘tilgan barcha undosh harflarni yozadi. O‘quvchilardan shu undoshlar ishtirokida biron bir harf qo‘shib bo‘g‘in hosil qilishni so‘raydi.

O‘qituvchi kesma harflar yordamida y harfi ishtirokida 5 ta so‘z hosil qilishni so‘raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o‘rgangan harflarimiz bilan so‘zlar tuzing. Tuzgan so‘zlaringizni partadoshingizga o‘qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so‘zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so‘zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so‘zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so‘zlar orasida yo‘q?

Harflar lentasidagi harflar esga olinadi. O‘qituvchi [y] tovushini so‘zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh

tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Yelim(rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 2 bo'g'in, 1-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo'g'inda 3 ta tovush. Y harfining o'ni birinchi katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katak ko'k rangga bo'yaladi.

1. Darslikda berilgan rasm asosida Y harfi qatnashgan so'zlar topiladi va bu so'zlar chizmasi doskada birgalikda chiziladi.

2. Oy so'zining boshiga bitta harf qo'shib hosil bo'lgan so'zlar o'qitiladi.

3. Doskaga ilingan Yo'l harakati qoidalari haqidagi rasmlar asosida kichik suhbat o'tkaziladi. Suhbatda yo'lda o'ynash, kesib o'tish kabi qoidalar eslatilishi, o'quvchilardan bu haqida nimalar bilishi so'raladi. Tavsiya etiladigan savollar:

Katta yo'lni qanday kesib o'tish kerak?

Bolalar yo'lni kesib o'tayotganlarida nimalarga rioya qilishlari kerak?

Bolalar qayerlarda o'ynashi mumkin emas?

Siz yashab turgan joyda xavfli yo'l bormi?

Bu yo'lda qanday harakatlanasiz?

4. "Kim odobli?" matni o'qitiladi.

O-yi, Lay-lo kat-ta yo'l-da o'y-nay-di. Oy-din kat-ta yo'l-da o'y-na-may-di. "A-kam, u-kam bi-lan may-don-da o'y-nay-man", – dey-di u. O-yi, Oy-din o-dob-li-mi yo-ki Lay-lo o-dob-li?

5. Darslikda berilgan rasmdagi xatolar aniqlanadi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Yashirin so'z boshqotirmasidagi berilgan so'zlarni toping va bo'sh kataklarga yozing. *Nay, to'y, yil, may, moy, kuy, yel, loy.*

2. Hayvonlar nomidan y tovushi ishtirok etganlarini topib, ko'rsatkich chizib belgilang.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 32-33-sahifalardagi tugatilmagan mashqlarni bajarish.

31-32-dars. R tovush va Rr harflari. STO‘

Bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida suhbatlashish jarayonida ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Uyga berilgan vazifa ustida ishlanadi va bu jarayonda ishtirok etgan bolalar rag‘batlantiriladi.

Bo‘g‘inga bo‘lamiz mashqi: O‘qituvchi doskaga bir nechta so‘zlarni yozadi. O‘quvchilardan shu so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib o‘qishni so‘raydi.

Hozir siz bilan “Bo‘g‘inlab o‘qiyimiz”, “Mashqini o‘tkazamiz”. Doskada yozilgan so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib o‘qing.

Eslatma: Asosiy urg‘u shaxsiyatga emas, balki xatti-harakatlardagi xatolarni tuzatishga qaratilishi kerak.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘qituvchi doskaga traktorni rasmni qo‘yadi. O‘quvchilardan traktor qanday ovoz chiqarishini va bu ovozda qaysi tovush uzunroq aytilishini so‘raydi.

Doskadagi rasmlarga qarang. Ularni so‘z bilan ifodalang. U chiqaradigan ovozda qaysi tovush uzoqroq talaffuz qilishini toping.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmni qanday so‘z bilan ifodaladingiz?

Traktor qanday ovoz chiqaradi?

U chiqargan ovozda qanday tovush uzunroq eshitiladi?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

Mavzuni tushuntirish:

O‘qituvchi [r] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

“R” tovushini talaffuzida lablar sal ochiq, harakatsiz bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, ammo tegmagan, titraydi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib qo‘yadi, havo oqimi esa og‘iz orqali o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘langan, tebranib tovush hosil bo‘ladi.

Darslikdan “Rr” harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she’r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Randa, romda “R” tovushi,

Uni qanday yozaman?

Bir qo‘lni belga qo‘yib,

Bir oyog‘ing tiragin.

“R”ga o‘xshab qolding sen,

Bor, oynaga qaragin.

O‘qituvchi: She’r nima haqida?

“R” harfi nimaga o‘xshatilgan?

Bola r harfini qanday qilib ko'rsata oldi?

Siz ham bola kabi r harfini ko'rsata olasizmi?

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Ko'rsatkichlar yordamida so'zlardan gap hosil qilinib o'qitiladi.

Rasmni ifodalovchi so'zlardagi xatolarni topadilar va doskaga to'g'ri holatini o'quvchilar yozadilar.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. "Rr" harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

2. Raketa so'zining chizmasidan r harfining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

3. Berilgan namunadan bosma "Rr" harfining bosh va kichik ko'rinishi va so'zlarni avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

4. Barcha N va K harflarining tagiga chizing.

So'ng qolgan harflardan so'z yasang va yozing. (yurt, doira, radio);

YNKKNKKNKUKKNNRNKNTKKNK- yurt;

NNKNKDKNKNOIKKKNNRKNKA-doira;

KRNKNKNANKNKNKDKINOKNN-radio.

O'qituvchi doskaga bir nechta rasmlarni iladi. Ular orasida shifokor, sartarosh kabi kasb-hunar egalarining rasmini qo'yadi. Rasmlar orasidan kasb-hunarni ifodalovchi so'zlarni ajratishini aytiladi. Kasb-hunar turlari haqida o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi. Sartarosh nimalar qilishi, shifokorlar nimalar qilishi haqida so'rash tavsiya etiladi. Bu so'zlarda [r] tovushining o'rnini aniqlaydi.

Daftarda rassom va shifokor so'zlarining chizmasida r harfini o'rnini topib belgilang.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga gap chizmasini chizadi. O'quvchilardan shu chizmaga mos gap tuzishni so'raydi.

Hozir siz bilan "Gap tuzish" mashqini o'tkazamiz. Doskada chizilgan gap chizmasiga qarang. Shu chizmaga mos gap tuzing.

Amaliy topshiriq bajarish:

O'qituvchi kesma harflar yordamida r harfi ishtirokida 5 ta so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so'zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

O'qituvchi [r] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir soʻzni oʻquvchilar bilan birga muhokama qiladi.

randa(rasmi)- boʻgʻinga boʻlinadi 2 boʻgʻin, 1-boʻgʻinda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. 2-boʻgʻinda 2 ta tovush. **“R”** harfining oʻrni 1-katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni koʻk rangga boʻyaladi.

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

Rasmga qarang.**“R”** harfi qatnashgan soʻzlarni topib, ularga mos chizma chizing.

Raketa, robot, radio, sayyora, Yer kabi soʻzlar topiladi va doskada chizmasi chiziladi.

Darslik bilan ishlash:

Soʻzlarni ketma-ket oʻqing.

Dialog navbatma-navbat oʻqiladi.

Soʻroq gapning ohangiga eʼtibor qaratiladi.

Bu ni-ma? Ru-bob-mi yo-ki du-tor?

Bu ru-bob. Men-da bit-ta ru-bob bor.

Ru-bo-bim kat-ta, ku-yi ma-yin.

*Gap mazmuniga mos soʻzlar bilan toʻldirib, **“Birdamlik”** matnini oʻqing.*

Ak-mal, Ma-di-na, Bar-no, Ka-rim bir boʻ-**lib**, ra-ke-ta **yasadilar** . Ak-mal kar-ton o-lib kel-di. Ma-di-na u-lar-dan ra-ke-ta boʻ-**lak-la-ri-ni** tayyor-la-di. Ka-rim bi-lan Bar-no bu boʻ-**lak-lar-ni** ye-lim-la-di-lar. Bo-la-lar bir-dam-lik kat-ta **kuch** e-ka-ni-ni bil-di-lar.

Matnni oʻqib rasm asosida suhbat oʻtkazish va oʻquvchilardan bu haqida nimalar bilishi soʻraladi. Tavsiya etiladigan savollar.

1. *Rasmda nimalar tasvirlangan?*
2. *Bolalar nima qilyaptilar?*
3. *Ular raketa yasash uchun nimalardan foydalandilar?*
4. *Siz ham oʻrtoqlaringiz bilan birga biron narsa yasaganmisiz?*
5. *Birgalikda ish qilishni qanday yaxshi tomonlari bor deb oʻylaysiz?*
6. *Raketa haqida nimalar bilasiz?*

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

Boʻgʻinlar jadvalini tuzib uni toʻldiring.

Boʻgʻinlarni oʻqing. Shu boʻgʻinlar uchragan soʻzni ifoda etuvchi mos rasmlar bilan bogʻlang.

Harflar orasidan mosini qoʻying va soʻz tuzib yozing.

arra, nur, dur, bur, tur, yur, yol, yor, yod, yot, yon.

Gaplarni avval nuqtalar ustidan soʻng mustaqil yozing.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashgʻulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz oʻzingiz mustaqil bajara oldingiz?

Sizda qoʻshimcha savollaringiz boʻlsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa beriladi. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 34-35-sahifalardagi tugatilmagan mashqlarni bajarish.

33-34-dars. Q tovush va Qq harflari.

Meni top mashqi: O‘qituvchi doskaga B, D, K, R, U harflarini oxirigacha yozilmagan ko‘rinishini qo‘yadi, yoki yozadi. O‘quvchilardan shu harflarni to‘liq yozishni so‘raydi.

Hozir siz bilan “Meni top” mashqini o‘tkazamiz. Doskada yozilgan harflarni yakuniga yetkazib yozib bering.

Eslatma: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bola javob berishda xatolikka yo‘l qo‘ymasligini oldi olinish maqsadida javob berish jarayonida javobni bola bilan birga ohanglantirish mumkin.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘qituvchi qarg‘a, tovuq rasmini qo‘yadi. O‘quvchilardan qanday ovoz chiqarishini va bu ovozda qaysi tovush hali o‘rganilmaganini so‘raydi.

Doskadagi rasmlarga qarang. Ularni so‘z bilan ifodalang. Ular qanday ovozda sayraydilar. Shu ovozda qaysi tovush bilan hali tanishmaganimizni toping.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmni qanday so‘z bilan ifodaladingiz?

Qushlar qanday ovoz chiqaradilar?

Qushlar sayragan ovozda qanday tovushni hali o‘rganmaganmiz?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

O‘qituvchi [q] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

“Q” tovushini talaffuzida bolaga “Q” tovushini artikulyasion holatini egallash va shu holatda til o‘zagi tebranib, o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi portillab, tebranib hosil qilinishi tushuntiriladi.

Darslikdan “Qq” harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she’r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

“O” va “O”ga o‘xshasam-da,

“Alifbo”da o‘rnim bor.

Qarang, xuddi quyonchadek

Mening ham o‘z dumim bor.

She’r nima haqida?

Q harfi nimaga o‘xshatilgan?

Qanday harflar q harfiga o‘xshatilgan?

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

Maqollar o‘qitiladi. Maqollarni rasmni ifodalovchi mos so‘zlar bilan to‘ldirib o‘qiladi.

El qad-ri-ni el bi-lar,

Suv qad-ri-ni – yer.

Ilm – o-qar bu-loq,

Ilm – yo-nar chiroq .

Maqollar mazmuni tushuntiriladi.

Qizil kitob haqidagi matn o‘qitiladi.

Qizil kitob – noyob kitob. Unga yo‘qolib borayotgan hayvonlar, qushlar, o‘simliklar nomlari kiritilgan.

Rasm asosida suhbat o‘tkazish tavsiya etiladi. Suhbatda bu kitob qanday kitob ekanligi va ularga kiritilgan ayrim hayvon va o‘simliklar haqida ma’lumot berish kerak.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. *“Qq” harfini tegishli rangga bo‘yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.*

2. *Qaldirg‘och so‘zining chizmasidan [q] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli katakni bo‘yang.*

3. *Quyosh so‘zning chizmasini chizing.*

4. *Berilgan namunadan bosma Qq harfining bosh va kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan so‘ng o‘zlari yozing.*

5. *So‘zlarni avval nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozadilar.*

6. *Bo‘g‘inlarga mos bo‘g‘in tuzib so‘z hosil qiling.*

Quduq, quloq, quruq buloq, quloq, qoloq.

Kim ko‘p mashqi: O‘qituvchi bir nafasda qa, qo bo‘g‘inini kim ko‘p aytishni so‘raydi.

Hozir siz bilan “Kim ko‘p” mashqini o‘tkazamiz. Bir nafasda kim ko‘p qa-qo bo‘g‘inini ayta oladi.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘qituvchi kesma harflar yordamida q harfi ishtirokida 5 ta so‘z hosil qilishni so‘raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o‘rgangan harflarimiz bilan so‘zlar tuzing. Tuzgan so‘zlaringizni partadoshingizga o‘qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so‘zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so‘zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so‘zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so‘zlar orasida yo‘q?

Harflar tasmaidan o‘tilgan harflar esga olinadi.

O‘qituvchi [q] tovushini so‘zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to‘siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko‘k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so‘zni o‘quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

qatiq(rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 2 bo'g'in, 1-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo'g'inda 3 ta tovush. “Q” harfining o'rni 1-va 5- katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni ko'k rangga bo'yaladi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

Rasmga qarang. “Q” harfi qatnashgan so'zlarni topib, ularga mos chizma chizing.

Qo'ziqorin, qirg'ovul so'zlarining chizmasi doskada o'quvchilarga chizdiriladi.

1. Ko'rsatma yo'nalishlar orqali so'zlarni hosil qiling va ularni ketma-ket o'qing. (Yoqa, qator...)

2. Bo'g'in va u ishtirok etgan so'zlar jamlanmasini navbatma-navbat o'qing. Ular yana qaysi so'zlarda ishtirok etishini ayting.

3. So'zlarni o'qing.

4. Tez aytishni o'qing. (O'qituvchi yoki o'qishni biladigan o'quvchi o'qiydi).

Qora qarg'a dorga qo'ndi,

Dorni cho'qib, qag'illab qo'ydi.

Qirq quyon oq, qirq biri qora.

Tez aytishni tez-tez aytishni tushuntiriladi. O'quvchilar bilan mashq qilinadi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

Rasmlar nomini ayting. Bitta tovush bilan farqlanadiganlarini aniqlab, bir xil rangga bo'yang (qo'y-qo'l, quyosh-quyon, bola-lola).

So'zlar bilan berilgan arifmetik amallarni bajaring. Yangi so'zlarni yozing (qora, qanot, quloq, quduq).

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 37-sahifadagi har bir so'zda bo'g'inlar soni nechta bo'lsa, shuncha yulduzchani bo'yang.

35-36-dars. S tovush va Ss harflari. STO‘

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar yagona tarbiyachi yoki pedagogga bog'lanib qolishi ko'p kuzatilganligi sababli, malum bir vaqtdan keyin o'quvchini ta'lim olayotgan sinfidan paralel boshqa sinfga o'tkazish tavsiya etilmaydi. O'quvchini sinfga qabul qilishdan oldin bunday muammoga dush kelmaslik choralari ko'rish lozim.

Meni top mashqi: O'qituvchi sinfga olma, limon, nok, malina, banan rasmlardan bir nechtasini ilib qo'yadi. Shu rasmlarni ifodalovchi so'zlar yozilgan kartochkalarni navbat bilan ko'rsatadi. O'quvchilardan shu so'zni o'qib rasmini olishni so'raydi.

Bugun siz bilan “Meni top” mashqini o'tkazamiz. Atrofdagi rasmlarga qarab oling. Men ko'rsatgan so'zni ichda o'qing va tezlik bilan atrofdan shu narsani topib ko'taring. Kim birinchi ko'tarsa shu g'olib.

Amaliy topshiriq bajarish:

O'qituvchi sichqon, sabzi, sochiq rasmini qo'yadi. O'quvchilardan shu rasmlarni ifodalovchi so'zlarning birinchi tovushini aniqlashni so'raydi.

Doskadagi rasmlarga qarang. Ularni so'z bilan ifodalang. Ular qanday tovush bilan boshlanishini toping.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmni qanday so'z bilan ifodaladingiz?

Sichqon qanday tovush bilan boshlanadi? Sochiq, sabzi-chi?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Mavzuni tushuntirish.

O'qituvchi [s] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

“S” tovushini talaffuzida lablar kulgu holatida, tishlar ko'rinib turadi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birikmagan, tilning keng qismi pastki kurak tishning orqasida turadi, tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlar bilan tirqish hosil qiladi, til kuragining yon qirralari yon tishlarga zich tiralgan bo'lib, faqat o'rta qismida ingichka tirqich qoladi, tilning o'rtasida sovuq havo oqimi o'tadi, buni his etish uchun qo'l kaftining orqa qisdaqiqai og'iz oldiga olib borish kerak, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo'lib, burun yo'llarini yopadi va buning natijasida havo oqimi og'izdan o'tadi, tovush bog'lamlari ochiq, tovush jaranglaydi.

Darslikdan “Ss” harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Chala sakkiz dema meni,

Ilon bo‘la olaman.

Sal-pal chiziq tortgin qani,

Sakkiz bo‘lib qolaman.

She’r nima haqida?

S harfi nimaga o‘xshatilgan?

S harfiga yana nimalarni o‘xshatish mumkin?

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

1. Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

2. Salom haqidagi she’r o‘qitiladi. Salom, assalom so‘zlari haqida suhbat o‘tkazish tavsiya etiladi.

Ti-lim-da tot-li ka-lom,

U-dir sa-lom, as-sa-lom.

Qo‘-lim ko‘k-sim-da dey-man:

Yur-tim, sa-lom, as-sa-lom.

3. **“Samarqand”** matni o‘qishni biladigan o‘quvchi tomonidan o‘qib beriladi.

Samarqand – dunyoga mashhur shahar. U yerda qadimiy obidalar ko‘p.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda oddiy va tushunarli so‘zlar qo‘llash tavsiya etiladi. Misol uchun: darslikdagi **“Obidalar”** so‘zi ular uchun kundalik hayotda qo‘llanilmaganligi sabab murakkab tuyulishi mumkin uning o‘rniga **“Binolar”** so‘zini qo‘llash mumkin.

4. Rasm asosida suhbat o‘tkaziladi.

Bu qanday shahar?

Siz bu shaharda bo‘lganmisiz?

Rasmdagi maydon nomini bilasizmi?

Samarqand sharining qadimiy obidalari rasmlari ko‘rsatib ular haqida ma’lumot berish tavsiya etiladi.


Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. **“Ss”** harfini tegishli rangga bo‘yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

2. Soyabon so‘zining chizmasidan [s] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli katakni bo‘yang.

3. Berilgan namunadan bosma **“Ss”** harfining bosh va kichik ko‘rinishini va so‘zlarni avval nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.

4. Sonlar ketma-ketligida nuqtalarni birlashtirib, hosil bo‘lgan so‘zni ayting.



(Salom)

5. Rasmlarni bo‘yang va nomlarini kataklarga yozing.

Gap tuzamiz mashqi: O‘qituvchi o‘quvchilarga maktab haqida gap tuzishni so‘raydi.

Bugun siz bilan “Gap tuzish” mashqini o‘tkazamiz. Maktab haqida gap tuzing.

Amaliy topshiriq bajarish.

O‘qituvchi kesma harflar yordamida s harfi ishtirokida 5 ta so‘z hosil qilishni so‘raydi.

Kesma harflaringiz yordamida o‘rgangan harflarimiz bilan so‘zlar tuzing. Tuzgan so‘zlaringizni partadoshingizga o‘qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qanday so‘zlar tuza oldingiz?

Partadoshingiz qanday so‘zlarni tuza oldi?

Partadoshingiz tuzgan so‘zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so‘zlar orasida yo‘q?

Harflar tasmasidan o‘tilgan harflar esga olinadi.

O‘qituvchi [s] tovushini so‘zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to‘siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko‘k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so‘zni o‘quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

sigir(rasmi)- bo‘g‘inga bo‘linadi 2 bo‘g‘in, 1-bo‘g‘inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo‘g‘inda 3 ta tovush. “S” harfining o‘rni 1-katakda ekanligi aniqlanadi. Shu katakni ko‘k rangga bo‘yaladi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan rasm asosida so‘z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

Rasmga qarang. “S” harfi qatnashgan so‘zlarni topib, ularga mos chizma chizing.

Sirk, sabzi, sandiq, masxaraboz kabi so‘zlar topiladi va doskada chizmasi o‘quvchilar tomonidan chiziladi.

1. So‘zlarni ketma-ket o‘qitiladi.

2. Sirkda matni bo‘g‘inlab o‘qitiladi. Matn yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.


Men o-i-lam bi-lan sirk-ka bor-dim. U yerda ars-lon, to‘-ti, may-mun, yo‘l-bars, it, kabu-tar-ni ko‘r-dim. Ars-lon bi-lan yo‘l-bars to‘-siq-dan sak-rab o‘t-di, to‘-ti bi-lan it son-lar-ni sa-na-di. May-mun e-sa o-dam-lar-ni kul-dirdi. Sirk-dan men mam-nun bo‘-lib qayt-dim.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

“Ss” harfini yozing.

Narsalar nomida S tovushi ishtirok etgan rasmni bo‘yang.

Chiziq bo‘ylab harakatlanib, harflar o‘rnini o‘zgartiring va so‘z tuzing.



Sayr, sariq, sabab

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaldingiz?

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 38-sahifadagi rasmlarni bo'yang va nomlarini kataklarga yozing.

37-38-dars. Z tovush va Zz harflari

Meni top mashqi: O'qituvchi doskaga a.a, n.n, t.t so'zlaridagi harflarni tushub qolgan tarzda yozadi. O'quvchilardan shu so'zlarda tushurib qoldirilgan harflarni topishni so'raydi.

Bugun siz bilan “Meni top” mashqini o'tkazamiz. Doskada yozilgan so'zlarda yashitilib tushib qolgan harflarni topib qo'ysangiz so'z hosil bo'ladi.

Amaliy topshiriq bajarish

Juftlikda ishlash:

O'qituvchi topishmoq o'qiydi:

Asal yig'ishdir ishi,

Ko'pdir uning yumushi. (asalari)

O'quvchilarga shu topishmoqni javobini topib uni qanday tovush chiqarishini aytishni so'raydi.

Topishmoqni javobini toping. U qanday tovush chiqarishini ayting.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Topishmoqni javobi qanday?

Bu hasharot qanday tovush chiqaradi?

Siz uni qayerlarda eshitgan bo'lishingiz mumkin?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

O'qituvchi [z] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

“Z” tovushini talaffuzida lablar kulgu holatida, tishlar ko'rinib turadi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birikmagan, tilning keng uchi pastki kurak tishlarining orqasida turadi, tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlar bilan tirqish hosil qiladi, til kuragining yon qirralari yon tishlarga zich tiralgan bo'lib, faqat tilning o'rta qismida ingichka tirqich qoladi, tilning o'rtasidan sovuq havo oqimi o'tadi, buni his etish uchun qo'l kaftining orqa qisdaqiqai og'iz oldiga olib borish kerak, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo'lib, burun yo'llarini yopadi va buning natijasida havo oqimi og'izdan o'tadi, tovush bog'lamlari bog'langan, u tebranib tovush hosil qiladi.

Darslikdan “Zz” harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Zinada turgan o'rtoq,

Senga bordir bir so'roq:

“N”ni qanday ushlasang,

“Z”ga o'xshaydi ozroq?

She'r nima haqida?

Z harfi nimaga o'xshatilgan ?

N harfini qanday qilib Z harfiga aylantirish mumkin

Sanoq cho'plaringiz bilan Z harfini yasab ko'ring.

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

“Z” tovushi bor so'zni toping.

Maqollarni o'qib uning mazmuni tushuntiriladi.

Oz so'z-la – soz so'z-la.

Ay-tar so'z-ni ayt,

Ayt-mas so'z-dan qayt.


Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Z harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

2. Zebra so'zining chizmasidan z harfining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

3. Berilgan namunadan bosma Z harfining bosh va kichik ko'rinishini va so'zlarni avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqili yozing.

4. Rasmni ifodalovchi so'zlarni jadvaldan topib shu kataklarni bo'yang.



So'zlarni bo'g'inlab aytamiz

mashqi: O'qituvchi o'quvchilarga ikki bo'g'inli so'zlarni topib bo'g'inga bo'lib aytishlarini so'raydi.

Bugun siz bilan **“So'zlarni bo'g'inlab aytamiz”** mashqini o'tkazamiz. Ikki bo'g'inli so'zlarni topib bo'g'inga bo'lib ayting.

Amaliy topshiriq bajarish:

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog'liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so'zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

Zebra- 2 bo'g'in , 1- bo'g'in -zeb, 2-bog'in -ra chizmada



O'xshash bo'g'inli so'zlarni o'qilishi va so'zlar ma'nolari tushuntiriladi. Zar Zarb Zarba



Darslik bilan ishlash:

Harflar tasmasidan o'tilgan harflar esga olinadi.

1. So'zlarni ketma-ket o'qing.

2. Rasmlar orasidan topishmoq javobini toping.

Oz qo'ysa, “Sol”, – deydi.

Ortiq qo'ysa, “Ol”, – deydi.(tarozi)

3. O'zbekiston matnini rasmni ifodalovchi so'zlarni o'z o'rniga qo'yib o'qing.

O'zbekiston

O'zbekiston qanday diyor?

O'zbekiston – qadimiy diyor. O'zbekistonda ulkan tog'lar, ko'rkam bog'lar, zilol suv, turli-tuman hayvonlar, qadimiy obidalar bor. O'zbekistonda do'stlik, tinchlik, birodarlik qadrlanadi.

Rasmlar asosida O'zbekiston tabiati haqida suhbatlashish tavsiya etiladi.

QR-kod orqali **“Zumrad va Qimmat”** ertagidan parcha eshittiriladi. Ertakning davomi o'quvchilardan so'raladi. Ertak qahramonlariga ta'rif beriladi.

Eslatma:

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan muloqotda bo'lishdan avval ularning hozirgi ruhiy holati va oilaviy muhitidan xabardor bo'lishingiz maqsadga muvofiq.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Bo'g'inli jadvalni tuzib, yozing.



2. Bo'g'inlardan so'z tuzing.



3. Narsalar nomida **Z** tovushi ishtirok etgan rasmni bo'yang.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil

bajara oldingiz?

Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 38-sahifadagi rasmlarni bo'yang va nomlarini kataklarga yozing.

39-40-dars. V tovush va Vv harflari

So‘z tuz mashqi: O‘qituvchi doskadagi a, d, m, o kesma harflarni qo‘yadi. O‘quvchilardan shu harflardan so‘z tuzishni so‘raydi.

Hozir siz bilan “So‘z tuz” mashqini o‘tkazamiz. Doskada yozilgan harflarni boshqa ketma-ketlikda joylashtirsak so‘z hosil bo‘ladi.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘quvchilarga vov-vov, vaq-vaq ovozlari qayerlarda eshitganlarini va bu ovozlarni orasidagi o‘xshash jihatlarni so‘raydi.

Eslatma: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning egallashlari lozim bo‘lgan bilim ko‘nikmalarni mustahkamlash va o‘quvchidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha maxsus pedagoglar maxsus yordam ko‘rsatish xonalarida o‘quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlashtiruvchi asosiy mutaxassis hisoblanadi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Bu ovozlarni nimanig ovozi edi?

Siz ularni qayerlarda eshitgansiz?

Bu ovozlarni orasida qanday o‘xshashlikni topdingiz?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Mavzuni tushuntirish:

O‘qituvchi [v] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

V tovushini talaffuzida pastki lab yuqorigi tish qirralariga yaqinlashganda orada o‘pkadan havo chiqib ketishi uchun tor bo‘shliq hosil bo‘ladi, yuqorigi lab yengil ko‘tariladi, yuqoridagi tish qirralari ko‘rinib turadi, pastki tish qirralarini pastki lab yopib turadi, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga tiralgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi, havo oqimi esa og‘iz orqali o‘tadi, tovush boylamlari birikkan bo‘ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

Darslikdan Vv harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inobatga olgan holda uning individual qobiliyatidan kelib chiqib qiziqishlari orqali tushuntiriladi. Darslikda berilgan she’r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Men borman vulqonda ham,

Vafo va vijdonda ham.

Vatan, volida va vaqt

So‘zlarini boshlash baxt.

She’r nima haqida?

V harfi bilan qanday so‘zlar bo‘shlanadi?

Siz V harfini nimaga o‘xshatasiz?

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Topishmoq o'qitilib javobi topiladi.

To-za qi-lib ba-dan-ni,

Yor-dam qi-lar u do-im.

Se-mir-ti-rib u tan-ni,

O'-zi o-zar mu-lo-yim.

Javobidagi so'zning chizmasini chizish va undan [v] tovushining o'rnini aniqlash tavsiya etiladi.

Munavvar musavvir matni o'qitiladi.

Mu-nav-var bu-vi-si-dan: **“Musav-vir kim?”** – deb so'-ra-di. Buvi-si: **“Mu-sav-vir – ras-som”**, –deb ayt-di. Mu-nav-var kat-ta bo'l-sam bu-yuk mu-sav-vir bo'-la-man, deb ni-yat qil-di.

Musavvir haqida suhbat o'tkaziladi.

Rasm asosida gaplar tuziladi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Vv harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

2. Varrak so'zining chizmasidan [v] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

3. Berilgan namunadan bosma Vv harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

4. So'zlarni yozing.

5. “V” harfining o'rnini topib bo'yang.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi o'quvchilarga kuz fasli haqida gap tuzishni so'raydi.

Hozir siz bilan **“Gap tuzamiz”** mashqini o'tkazamiz. Kuz fasli haqida gap tuzing.

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog'liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so'zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

vagon- 2 bo'g'in ,1- bo'g'in -va, 2-bog'in –gon chizmada

Qolgan so'zlar o'quvchilarga bo'lib beriladi. Har bir qatordagi o'quvchilar o'ziga



tegishli so'zning chizmasini varraqqa chizadi.

Masalan:

1-qator: velosiped

2-qator: vertolyot

Darslik bilan ishlash:

Harflar tasmasidan o'tilgan harflar esga olinadi.

1. So'zlarni ketma-ket o'qing.

O'xshash bo'g'inli so'zlarni o'qilishi va so'zlar ma'nolari tushuntiriladi.

Nov-voy nov-vot



“Svetofor” matni o‘qitiladi.

Svetofor – yo‘l ko‘rsatadigan elektr chiroq. Uning uchta chirog‘i bor: qizil, sariq, yashil. Svetofor ko‘chadagi yo‘l harakatini boshqarib turadi. Mashina, velosipedlar, piyodalar uchun alohida svetoforlar bor. Siz ularni ko‘rganmisiz?

Ularning nimasi har xil?

1. Savollarga javob beriladi.
1. Svetofor nima?
2. Undan nima maqsadda foydalanamiz?
3. Svetoforning nechta chirog‘i bor?
4. Ularning ranglari nima uchun har xil?


Rasm asosida chorraha haqida suhbat o‘tkazish tavsiya etiladi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. So‘zdagi harflardan yangi so‘zlar tuzib yozing. (Vatan, par, ana, arra, tana, arava...)

Vatanparvar

2. Namunaga qarab bajaring:
Harflarni tegishli shakllar bilan o‘rang.



Darsga yakun yasash:

Darsda sizga nima yangilik bo‘ldi?

Nimalarni bilib oldingiz?

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg‘ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo‘ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarinin 43-sahifadagi rasmda kim tasvirlangan? (Sotuv-chi). Sabzavotlar orasidan “v” tovushi ishtirok etganlarini toping.

41-42 dars. P tovush va Pp harflari. STO‘

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi. O‘quvchilarga o‘qituvchi darslikdagi shartli belgilarni ta’riflaydi. O‘tgan dars bo‘yicha fikr almashiladi. Berilgan javoblarga qarab o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Juftlikda bajaramiz mashqi: O‘qituvchi 6 juft o‘quvchini doska oldiga chiqaradi. Ularni bir-biriga orqama –orqa qo‘yadi. Sinfga qarab turgan o‘quvchi bitta unli tovushni aytadi o‘tirgan o‘quvchilar esa uni to‘g‘ri desalar ikkinchi o‘quvchi shu harfni doskaga yozadi. Qolgan o‘quvchilar bilan ham shunday davom ettirishini aytadi.

Amaliy topshiriq bajarish: O‘quvchilarga bir - birlarini orqalaridan ketma-ketlikda poyezd bo‘lib sinf bo‘ylab harakatlanishlarini va shu harakatlariga to‘siq paydo bo‘lganda qanday ovoz chiqarishlarini so‘raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Siz qanday transport turini ko‘rsatdingiz?

Poyezd harakatlanganda qanday ovoz chiqaradi?

Poyezd yo‘lidan nima chiqdi?

Poyez to‘xtashdan avval, yoki oldidan biron narsa chiqqanda qanday ovoz chiqaradi?

Bu ovozda qanday tovushlar bor?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

Mavzuni tushuntirish:

O‘qituvchi [p] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

P tovushini talaffuzida avval lablar tinch jipslashgan bo‘ladi, so‘ngra havoning tez yorib chiqishi natijasida ochiladi, tish qirralari orasidagi masofa va tilning holati P tovushidan keyin keladigan unli tovushlarga bog‘liq bo‘ladi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan bo‘lib, tomoqning orqa devoriga siqilgan va burun yo‘llarini yopib turadi, natijada o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi og‘izdan o‘tib ketadi, tovush bog‘lamlari ochiq bo‘lib, tovush jaranglamaydi.

Darslikdan Pp harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Menga uchraysan har gal

Kiysang pay

poq, poyabzal.

Patir, palov yeganda,

“Paxta”, “pilla” deganda.

She‘r nima haqida?

P harfi bilan qanday so‘zlar bo‘shlanadi?

P harfini siz nimaga o‘xshatasiz?

Eslatma: Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda qisqa va uzoq muddatli maqsadlar qo‘yish va tahlil qilib borish tavsiya etiladi.

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

Topishmoqni o‘qib, javobi topiladi.

Pak-pa-ka-na bo‘-yi bor,

Yet-ti qa-vat to‘-ni bor.

Pak-pa-ka-na bo‘-yi bor,

Mal-la tuk-li to‘-ni bor.

Topishmoqning javobini doskada so‘z chizmasini chizish orqali ifodalashadi.

QR-kod orqali “Xurmacha polvon” ertagi tinglanadi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. **Pp** harfini tegishli rangga bo‘yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.
2. Piyoz va pomidor so‘zlarining chizmasidan [p] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli katakni bo‘yang.

3. Berilgan namunadan bosma **Pp** harfining bosh va kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.

4. Jadvaldan takrorlangan harflarni o‘chirib, qolgan harflardan so‘z hosil qiling (palov).

So‘zlarni bo‘g‘inlab aytamiz mashqi: O‘qituvchi o‘quvchilarga bir bo‘g‘inli so‘zlarni topib bo‘g‘inga bo‘lib aytishlarini so‘raydi.

Hozir siz bilan **“So‘zlarni bo‘g‘inlab aytamiz”** mashqini o‘tkazamiz. Bir bo‘g‘inli so‘zlarni topib bo‘g‘inga bo‘lib ayting.

Amaliy topshiriq bajarish:

Darslikda berilgan rasm asosida so‘z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog‘liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so‘zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

palov- 2 bo‘g‘in , 1- bo‘g‘in -pa, 2-bog‘in –lov chizmada

p	b	q	d	b	d
z	q	a	o‘	b	d
i	d	b	d	o‘	q
z	q	l	b	d	d
o	i	d	q	z	v



Qolgan soʻzlar qatorlarga boʻlingan holda bajarish tavsiya etiladi. Unda oʻquvchilar berilgan soʻzning chizmasini chizadi va tekshirib oladi:

1-qator: patir

2-qator: piyola

3-qator: patnis

Harflar tasmasidan oʻtilgan harflar esga olinadi.

Koʻrsatkichlar yordamida soʻzlar hosil qilinadi va oʻqiladi.

Oʻxshash boʻgʻinli soʻzlarni oʻqilishi va soʻzlar maʼnolari tushuntiriladi.

Pat pa-tir



Darslikda berilgan boʻgʻin va soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi.

“Ipak qurti” ertagi oʻqiladi. Ertak matni mazmuni yuzasidan savol-javob oʻtkaziladi.

Bir bor e-kan, bir yoʻq e-kan, tut-zor-da i-pak qur-ti va ka-pa-lak boʻl-gan e-kan. Kapa-lak qa-not-la-ri tur-li - tu-man tov-la-nar-kan. U-ni koʻ-rib i-pak qur-ti ro-sa zavq-la-nib-di. I-pak qur-ti i-pak oʻ-ray-ve-rib-di - oʻ-rayve-rib-di. Bir ku-ni er-ta-lab qa-ra-sa, en-di u i-pak qur-ti e-mas, ka-pa-lak e-kan. U tutzor-da-gi tut-ga qoʻ-nib, qa-not-la-ri-ni pirpi-ra-tib, koʻz-ni qu-von-ti-rib-di.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Rasmlarni ifodalovchi soʻzlarni ayting. Soʻzda [b] tovushi qatnashsa b harfini, agar [p] tovushi soʻzda boʻlsa unda p harfini boʻyang.

2. Rasmni ifodalovchi soʻzlarni topib birlashtiring.(pol, bol, qor, dor)

Bu soʻzlar qaysi harflar bilan farq qilayotganini ayting.

Darsga yakunlashdan oldin: Refleksiya mashqi davom ettiring:

Men bugun darsda... bilib oldim.

Menga... qiziq boʻldi.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashgʻulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik boʻldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Uyga vazifa beriladi. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 44-sahifadagi soʻzlarni yozing va kataklarni tovushlar tahliliga mos ranglarda boʻyang. (palma, panda).

43-44 dars. G tovush va Gg harflari. STO‘

Meni top mashqi: O‘qituvchi doskaga _ola so‘zidagi harflarni tushub qolgan tarzda yozadi. O‘quvchilardan shu so‘zlarda tushurib qoldirilgan harflarni topishni so‘raydi.

Hozir siz bilan “Meni top” mashqini o‘tkazamiz. Doskada yozilgan so‘zda yashirinib tushib qolgan. Harflarni topib qo‘ysangiz so‘z hosil bo‘ladi.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘qituvchi o‘quvchilarga bir nechta so‘zlarni ketma- ket aytadi. O‘quvchilar shu so‘zlarni qanday tovush bilan boshlanganligini so‘raydi. *Gilam, gul, gap, garimdori, gavhar, guldori. Bu so‘zlar qanday tovush bilan boshlanayapti?*

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Qaysi so‘zlar yodingizda qoldi?

Bu so‘zlar qanday tovush bilan boshlanadi?

Siz ham shu tovush bilan boshlanadigan so‘zlarni bilasizmi?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

O‘qituvchi [g] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

G tovushini talaffuzida lablar bir oz ochiq, harakatsiz bo‘ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo‘ladi, ammo birikmaydi, **G** tovushi unli **a, o, u, i** tovushlar bilan birikib, talaffuz etilganda til uchi pastga tushgan bo‘ladi va pastki kurak tishlaridan itarilgan, til kuragining orqa qismi yumshoq tanglay bilan birikadi. til kuragi esa qattiq tanglayga bosiladi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo‘ladi, buning natijasida burun yo‘llari yopilib, o‘pkadan chiqayotgan havo og‘izdan o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘langan bo‘ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

Darslikdan Gg harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Go‘zal so‘zlar boshlayman,

Gavhar bo‘lib yashnayman.

Gul, giyoh go‘yo gilam,

Gulzor chiroyli biram.

She‘r nima haqida?

G harfi qaysi so‘zlarda ishtirok etgan?

Siz Gg harfini nimaga o‘xshatasiz?

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi. Boshqotirmadan yashiringan so‘zlar topiladi. (*qo‘ng‘iroqgul, atirgul, guldon, gulkaram*). Bu so‘zlarning yozilishi ikki so‘zni bir qilib yozish bilan hosil bo‘lishidan ekanligini tushuntiriladi.

Tinglab tushunish:

Guruch haqida matn o‘qiladi. Matnda uchragan notanish so‘zlar so‘raladi. O‘rganilayotgan harf matnda nechta ekanligi sanaladi.

Rasm asosida gaplar tuziladi.


Donli ekinlar haqida o‘quvchilar qanday ma‘lumotlar bilishi so‘raladi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Gg harfini tegishli rangga bo‘yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

2. Guldon so‘zining chizmasidan [g] tovishining o‘rnini aniqlang va tegishli katakni bo‘yang.

3. Berilgan namunadan bosma Gg harfining bosh va kichik ko‘rinishini va so‘zlarni avval nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.



Ismlar bosh harf bilan yozilishini doimo yodda tuting.

4. Bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzing. Kulgi, gilam, belgi, gilos.

Nechta gap bor mashqi: O‘qituvchi doskaga 3 ta gapdan iborat matnni yozib qo‘yadi. O‘quvchilardan nechta gap yozilganini so‘raydi. Ali maktabda o‘qiydi. Mana u kitob o‘qiyapti. U odobli bola.

Hozir siz bilan “Nechta gap bor” mashqini o‘tkazamiz. Doskada yozilgan matnda nechta gap bor. Raqamli kartochkalar yordamida ko‘rsating.

Amaliy topshiriq bajarish:

Darslikda berilgan rasm asosida so‘z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog‘liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so‘zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

Gilam- 2 bo‘g‘in, 1- bo‘g‘in -gi, 2-bog‘in -lam chizmada



Eslatma: Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kritik (tanqidiy) fikrlash (critical thinking), kreativlik (creative thinking), muloqot qilish kommunikatsiya (communication), jamoaviy ishlash ko‘nikmasi kooperatsiya yoki kollaboratsiya (coordinating with others) ko‘nikmalari rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanish qo‘l keladi.

Qolgan soʻzlar guruhlarga boʻlingan holda bajarish tavsiya etiladi. Unda oʻquvchilar berilgan soʻzning chizmasini chizadilar. Har bir guruhda vakil chiqib doskada chizmani chizadi qolgan oʻquvchilar tekshirib oladilar:

1-guruh: gitara;

2-guruh: gumbaz;

3-guruh: gulzor;

4-guruh: guldon;

5-guruh: gul.

Oʻxshash boʻgʻinli soʻzlarni oʻqilishi va soʻzlar maʼnolari tushuntiriladi.

Gul gul-don gul-zor.



Darslik bilan ishlash:

Harflar tasmasidan oʻtilgan harflar esga olinadi.

1. Koʻrsatkichlar yordamida soʻzlarni ketma-ket oʻqing.

Soʻzlarni koʻrsatkich boʻylab oʻqitiladi. Soʻzlar maʼnosi tushuntiriladi.

2. Koʻrsatkichlar yordamida soʻroq gaplarni hosil qiling va oʻqing.

Salollarga javob bering.

3. Tez aytishni tez-tez oʻqing va ayting.

Guldasta – gullardan dasta.

4. Gulzorda matnini oʻqing.

Ma-di-na gul-lar-ni yoq-ti-ra-di. U o-na-si va a-ka-si bi-lan bir-ga-lik-da gul-zor-ga a-tirgul va lo-la ek-di. Ma-di-na gul-lar-ga oʻz vaq-ti-da suv quy-di. Tez kun-da gular oq, qi-zil, sa-riq boʻ-lib gul-ladi. Ma-di-na gul-lar-ni koʻ-rib qu-von-di. U oʻz gul-la-ri-dan o-na-siga gul-das-ta ya-sa-di.

Matn yuzasidan suhbat oʻtkaziladi.


Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. G harfini oʻrnini topib boʻyang.

2. Harflarni raqamlar ketma-ketligida yozsangiz soʻz hosil boʻladi.

2	5	3	4	1		2	1	6	5	4	3		1	4	3	2	5
Oʻ	K	D	A	G		A	G	A	T	E	Z		Oʻ	A	D	R	K

Rasmlarni boʻyang. Ularning nomlarini jadvaldan toping.



Darsga

yakun

yakunlashdan oldin:

Refleksiya mashqi: Bugun darsda sizning esingizda qolgan bitta maʼlumotni ayting.

Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 46-sahifadagi rasmni namunada berilgan harflarning rangida bo'yang.

45-46 dars. G' tovush va G'g' harflari

Meni top mashqi: O'qituvchi doskaga o'tilgan barcha harflarni yozadi. O'qituvchi o'tilgan tovushlarni ayrimlarini aytadi. O'quvchilardan shu tovushlarni ifodalovchi harflarni topishni so'raydi.

Hozir siz bilan "Meni top" mashqini o'tkazamiz. Men aytgan tovushlarni doskada yozilgan harflarini orasidan toping.

Amaliy topshiriq bajarish:

O'qituvchi o'quvchilarga bir nechta audio yozuvni eshittiradi.

1. G'ozlar ovozi;

2. Mashinani o't olib yurmoqchi bo'lgan ovoz. O'quvchilar shu eshitganlarini qanday tovush bilan ifodalash mumkinligini so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Nimaning ovozini eshitdingiz?

G'oz qanday ovoz chiqaradi?

Mashinani ovozini qanday tovush bilan ifodalash mumkin?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Mavzuni tushuntirish:

O'qituvchi [g'] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

G' tovushini talaffuzida lablar bir oz ochiq, harakatsiz bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo'ladi, ammo birikmaydi. Bu bo'shliq (tirqish) orqali o'pkadan kelayotgan havo o'tadi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi. Buning natijasida havo oqimi og'iz orqali o'tadi, tovush bog'lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Darslikdan G'g' harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga dars mavzularini tusuntirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni ko'paytirish, ularda kattalashtirilgan matnlar, ovozli va harakatli mashg'ulotlar orqali ma'lumotlarni ko'proq eslab qolish qulayligini tug'diradi.

"G'"ni yozish qiyinmas,

Biroz e'tibor bering.

G harfining qoshiga

Vergul aksini qo'ying.

She'rda qanday harf o'zgartirilgan?

G' harfini yozish uchun qanday belgi kerak bo'ladi?

G' harfi bilan boshlangan qanday so'zlarni bilasiz?

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

So‘zlar ma‘nosi tushuntiriladi.

G‘oz haqidagi she‘r o‘qitiladi.

G‘o-g‘o-lay-di g‘oz,

Kuy-lar soz o-voz:

“O‘y-nay-lik bir-ga,

Kuy-lay-lik bir-ga.

Bu bog‘, da-la-da

Quv-nay-lik bir-ga”.

Rasm asosida suhbat o‘tkazish tavsiya etiladi.

O‘qishni biladigan o‘quvchiga Erkin Vohidovning “O‘lka” she‘ri o‘qitiladi.

Bog‘laringni sayr etganimda,

Sen bor eding qalbda, Vatanim.

Bog‘ husniga she‘r bitganimda

Uni dastlab senga atadim.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:


1. *G‘ g‘ harfini tegishli rangga bo‘yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.*

2. *G‘udda so‘zining chizmasidan [g‘] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli katakni bo‘yang.*

3. *Berilgan namunadan bosma G‘g‘ harfining bosh va kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan o‘zingiz yozing.*

4. *Bo‘sh katakka berilgan harflar orasidan mosini qo‘yib yozing.*

G‘oya, soya, g‘alla, palla, pilla, tilla, bog‘, tog‘, yog‘, sog‘, dog‘...



Bo‘g‘inlab ayting mashqi: O‘qituvchi doskaga karam, stol, kitob, guldon, g‘oz, kapalak rasmi qo‘yiladi. O‘quvchilardan rasmlarni ifodalovchi so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib aytishni so‘raydi.

Hozir siz bilan “Bo‘g‘inlab ayting” mashqini o‘tkazamiz. Doskadagi rasmlarni ifodalovchi so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib ayting.

Amaliy topshiriq bajarish:

Harflar tasmasidan o‘tilgan harflar esga olinadi.

Darslikda berilgan rasm asosida so‘z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog‘liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so‘zni tanlab olib uni ng chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

1-qator: $\log^c$

3-qator: bug‘doy

Ko'rsatkichlar yordamida so'zlar o'qiladi.

O'xshash bo'g'inli so'zlarni o'qilishi va so'zlar ma'nolari tushuntiriladi.

G'o-lib, g'o-yib

2. Tez aytishni tez-tez o'qing.

Gʻani gʻildirakni gʻizillatib gʻildiratdi.

O'quvchilar tez aytishni mashq qilishadi.

3. “G‘alaba” matnini o‘qing.

4. Matn yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

G‘u-lom bi-lan Mar-g‘u-ba sport-ni yoq-ti-radi-lar. G‘u-lom boks, Mar-g‘u-ba e-sa gim-nasti-ka to‘-ga-ra-gi-ga qat-nay-di. U-lar bu yil-gi mu-so-ba-qa-ga ko‘p tay-yor-gar-lik ko‘r-di-lar. Mu-so-ba-qa ya-ku-ni-da u-lar g‘o-lib-lik-ni qo‘l-ga ki-ri-tib, g‘a-la-ba bi-lan uy-ga qayt-di-lar.

Harflardan bo'g'inlar jadvalini tuzib, yozing.

	o	o'	e			g'	g	p		
g'	g'o					a	ag'			
g						i				

Chiziq bo'ylab harakatlaning. Harflar o'rnini o'zgartirib, so'z tuzing.

Diagram illustrating the alignment of two words, "ugda" and "ogtra", on a grid. The top row contains the letters 'u', 'g', 'd', 'a', 'd' and the bottom row contains 'o', 'g', 't', 'r', 'o', 'a'. Dashed arrows show the alignment: 'u' to 'o', 'g' to 'g', 'd' to 't', 'a' to 'r', and 'd' to 'o'. The word "ogtra" is written below the grid.

Rasmlarga qarang. Nomlarida [gʻ] tovushi ishtirok etganlarini boʻyang.

Darsga yakun yasash:

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

*Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?
Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?*

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 48-sahifadagi so'zlarni avval nuqtalar yordamida so'ng mustaqil yozing.

47-48 dars. H tovush va Hh harflari. STO‘

So‘z tuz mashqi: O‘qituvchi doskaga doira chizadi uni o‘rtasiga katta qilib “-bo” bo‘g‘inini atrofiga esa kichikroq qilib –la, -bo, -tir, -bur, -sit, bo‘g‘inlarni yozadi. O‘quvchilardan shu “-Bo” bo‘g‘iniga atrofdagi bo‘g‘inlardan mosini qo‘yib so‘z hosil qilishni so‘raydi.

Amaliy topshiriq bajarish:

Juftlikda ishlash:

O‘qituvchi o‘quvchilarga juftlikda bir birlariga yoqtirgan narsalarini so‘rab savol berishlarini o‘rtoqlari esa qisqa javob berishi aytadi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

O‘rtog‘ingizdan nimalar haqida so‘radingiz?

O‘rtog‘ingiz nimalarni yoqtirar ekan?

O‘rtog‘ingiz savolingizga qanday javob berdi ?

Senga banan yoqadimi savoliga qanday qisqa javob berish mumkin?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

O‘qituvchi [h] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

H tovushini talaffuzida lablar bir oz ochiq, harakatsiz, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birikmagan, tilning keng qismi pastki kurak tishning orqasida turadi, havo tomoqdan qirilmay, yumshoq chiqadi.

Darslikdan Hh harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Hilol, hakka, handalak,

Hunar, hovli, halinchak,

Borman inson hushida,

Hatto Humo qushida.

She‘rda harf nimaga o‘xshatilgan?

H harfi bilan qanday so‘zlar boshlangan?

Siz h harfini nimaga o‘xshatdingiz?

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda o'z-o'zini boshqarishning turli shakllarini o'rgatish, har bir bolaning yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish har bir pedagogdan talab etiladi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

O'quchilarning e'tibori rasmga qaratiladi.

Undagi sehrli so'zlar o'qiladi.

Bu so'zlardan qachon foydalanish mumkinligi so'raladi.

“Sehrli so'zlar” matni o'qitiladi.

Bo-la-lar, ti-li-miz-da sehr-li so'z-lar bor-li-gini bi-la-siz-mi? U-lar **“As-sa-lo-mu a-lay-kum”**, **“Rah-mat”**, **“Uzr”**, **“Va-a-lay-kum as-sa-lom”**, **“Mar-ha-mat”** ka-bi so'z-lar-dir. Bu so'z-lar sehr-li e-kan-li-gi-ga sa-bab, u-lar-ni ayt-ganda in-son yu-zi-da ta-bas-sum pay-do bo'-la-di.

Matn mazmunini yoritish uchun berilgan savollarga javob beriladi.

1. Siz ham sehrli so'zlarni bilasizmi?
2. Eng ko'p qaysi sehrli so'zni qo'llaysiz?

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. **Hh** harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.
2. Hakka so'zining chizmasidan [h] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.
3. Berilgan namunadan bosma Hh harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.
4. So'zlarni avval nuqtalar yordamida so'ng mustaqil yozing.
5. Kvadratlarga qarang. Qaysi bo'g'inlar yetishmayotganini toping va bo'sh kataklarga ularni yozing.

HA	HU		HO	HI	HO'			PO			
	QU	QE	QO		RO'		RU		NE		NA
KA		KE	KO	SI		SE	SU	BO			BA
VA	VU	VE		GI		GE				ZI	

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga salom berayotgan bola rasmini qo'yadi. O'quvchilardan rasmga qarab gap tuzishni so'aydi.

Hozir siz bilan **“Gap tuzamiz”** mashqini o'tkazamiz. Doskadagi rasmga qarab gap tuzing.

Amaliy topshiriq bajarish:

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog‘liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so‘zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

handalak- 3 bo‘g‘in , 1- bo‘g‘in –han, 2-bog‘in –da, 2-bog‘in –lak



chizmada

Qolgan so‘zlar qatorlarga bo‘lingan holda bajarish tavsiya etiladi. Unda o‘quvchilar berilgan so‘zning chizmasini chizadilar. Har bir qatordan vakil chiqib, doskada chizmani chizadi. Qolgan o‘quvchilar tekshirib oladilar:

1-qator: hakka

2-qator: haskash

3-qator: hamyon

4-qator: hassa

Darslik bilan ishlash:

Harflar tasmaidan o‘tilgan harflar esga olinadi.

Ko‘rsatkichlar yordamida so‘zlar o‘qiladi.

O‘xshash bo‘g‘inli so‘zlarni o‘qilishi va so‘zlar ma’nolari tushuntiriladi.

hu-nar, hu -quq.



Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi. Maqollar o‘qitiladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Ha-ra-kat, ha-ra-kat-da ba-ra-kat.


Ha-lol meh-nat – mo‘l da-ro-mad.

Har kim ek-ka-nin o‘-rar.

“Hayvonot bog‘i” matni o‘qitiladi.


Biz bu-gun o-i-la-miz bi-lan bir-ga hay-vo-not bo-g‘i-ga bordik. Hay-vo-not bo-g‘i kat-ta e-kan. U yer-da tim-soh, yo‘l-bars, bo‘-ri, tul-ki, a-yiq, ki-yik ka-bi hay-von-lar-ni ko‘r-dik.

Rasmlar asosida yovvoyi hayvonlar haqida suhbat o‘tkazish tavsiya etiladi.




Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. So‘zlarga H harfini qo‘shib, yangi so‘z hosil qiling. (hamma, hakam, hayvon, hayron).



2. Sonlar ketma-ketligida nuqtalarni birlashtirib, hosil bo'lgan so'zni ayting.(hovuz).



Darsga yakun yasash:

Refleksiya mashqi: Fikrni to'ldiring:

Men bilib oldim.

Biz ... bajardik.

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 51-sahifadagi **H** harfini to'g'ri yozilgan harflar bo'ylab ko'rsatkich chish bilan handalakka olib boring.

49-50 dars. SH tovush va Sh sh harflari

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar to'xtovsiz ovoz chiqargani bilan mazmunli nutq chiqmaslik holati kuzatilishi, ayrim holatlarda nutq chiqarish vaqtida ovozi zaif chiqishi, fikrini ifodalash jarayonida so'zlarni o'rniga imoishora va boshqa harakatlardan foydalanishi, nutqi jinsi va yoshiga mos kelmaslik holatlari kuzatilishi mumkin.

Kim biladi mashqi: O'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan tovushlarni aytadi. O'quvchilar **“sh”** tovushlarni ifodalovchi harflarni yozadilar. Kim birinchi yozib bo'lsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi.

*Hozir siz bilan **“Kim biladi”** mashqini o'tkazamiz. Men aytgan tovushlarni kim birinchi bo'ib qog'ozga yozib ko'rsatsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi.*

Amaliy topshiriq bajarish:

O'qituvchi doskaga shaftoli, sholg'om rasmlarini qo'yadi. O'quvchilardan bu rasmni

ifodalovchi so'zlarda qanday o'xshash va farqli tomoni borligini topishni so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmni ifodalovchi so'zlarni ayting?

Bu so'zlar orasida qandau farq bor?

So'zlar orasidagi o'xshashlik nimada?

Shu tovush bilan boshlanadigan yana qanday so'zlarni bilasiz?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Mavzuni tushuntirish:

O'qituvchi [sh] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

Sh tovushini talaffuzida lablar aylana shaklida va oldinga bir oz chiqqan, tishlar bir- biriga yaqinlashgan, tilning keng uchi qattiq tanlayning oldingi qirrasiga ko'tarilgan bo'lib, ular oralig'ida tirqish hosil bo'ladi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devorga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib qo'yadi. Buning natijasida havo oqimi og'iz orqali o'tib ketadi, tovush bog'lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Darslikdan Sh sh harf birikmasining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

“S” do'stlashdi “H” bilan,

Ko'ring shodligin biram.

Shaxmat, shashka so'zlarida

Ajralmas ular hech ham.

She'rda harflar haqida nima deyilgan?

Sh harfi bilan qanday so'zlar boshlangan?

Sh harf birikmasi deganda nimani tushundingiz?

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

O'qituvchi doskaga qish fasli va qishki o'yinlar tasvirlangan rasmlarni iladi.

Rasmlar asosida suhbat o'tkazish tavsiya etiladi.

“Qish” matni o'qitiladi.

O'l-ka-miz-ga qish ki-rib kel-di. Qish-da hamma yoq op-poq qor bi-lan qop-la-na-di. Bo-la-lar qish-ki o'-yin-lar-ni in-tiq-lik bi-lan ku-ta-di-lar. Maydon-dan bo-la-lar sho-don kul-gi-si e-shi-ti-la-di.

Matn yuzasidan suhbat o'tkazadi. O'qigan matn qaysi rasmga mos kelishi o'quvchilardan so'raladi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:


1. Sh harf birikmasini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

2. Shilliqurt so'zining chizmasidan [sh] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.


3. Berilgan namunadan bosma Sh, sh harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

4. So'zlarni avval nuqtalar yordamida, so'ng mustaqil yozing.

5. Sh harf birikmasining o'rnini aniqlang va ko'k rangga bo'yang.



6. Pomidor Do'ppiga sonlar o'rniga harflarni to'g'ri qo'yib, so'zlar hosil qilishiga yordam bering. (shamol, sham, shoir, sholg'om).



Bo'g'inlarni yozamiz mashqi: O'qituvchi bo'g'inlarni aytishini o'quvchilar esa ularni kesma harflari yordamida tuzishlarini so'raydi.

Hozir siz bilan “Bo'g'inlarni yozamiz” mashqini o'tkazamiz. Men bo'g'inlarni o'qiyman siz esa ularni kesma harflaringiz bilan yozing.

Amaliy topshiriq bajarish:

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bogʻliqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta soʻzni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

shoir- 2 boʻgʻin, 1- boʻgʻin –sho, 2-bogʻin –ir, chizmada.



Qolgan soʻzlar qatorlarga boʻlingan holda bajarish tavsiya etiladi. Unda oʻquvchilar berilgan soʻzning chizmasini chizadilar. Har bir qatordan vakil chiqib doskada chizmani chizadi qolgan oʻquvchilar tekshirib oladilar:

1-qator: shom;

2-qator: sham;

3-qator: bosh.

Darslik bilan ishlash:

Harflar tasmasidan oʻtilgan harflar esga olinadi.

Oʻxshash boʻgʻinli soʻzlarni oʻqilishi va soʻzlar maʼnolari tushuntiriladi.

shim, shi -mol.

Darslikda berilgan boʻgʻin va soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi. Soʻzlar koʻrsatkich boʻylab oʻqitiladi. Hosil boʻlgan soʻzlar muhokama qilinadi.



Alisher Navoiy haqida suhbat uyushtiriladi.

Oʻqishni biladigan oʻquvchilarga Alisher Navoiy haqidagi matn oʻqitiladi.

Buyuk shoir Alisher Navoiy Hirot shahrida tugʻilgan. Alisher bolaligidan sheʼrlar yoza boshlagan. Shoir oʻz sheʼrlarida Vatanni sevishga, mehr-oqibatli


boʻlishga chorlagan.

Rasmlarning birinchi harfidan soʻz yasaladi (sharbat, shotut).



Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Akmal bilan birga boʻgʻinlarni yozing. Ochiq boʻgʻinlarni qizil, yopiq boʻgʻinlarni koʻk rangga boʻyang.



2. Gaplarni namunaga qarab yozing.

Shoira shanba kuni keladi.
Shokir oqshomda qaytdi.

Darsga yakun yasash:

Reflksiya mashqi: Fikrni to'ldiring:

Menga ... qiziq bo'ldi.

Men ... bilib oldim.

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 61-sahifadagi **“Qish”** matnini bo'g'inlab o'ishni mustahkamlash.

51-52 dars. F tovush va F f harflari. STO‘

Faollashtirish uchun zanjir mashqi: O‘qituvchi bitta so‘z aytadi. O‘quvchilardan shu so‘zni so‘nggi tovushiga so‘z aytishni so‘raydi. Mashq shu tariqa davom etadi. Notanish tovush chiqqanda mashq to‘xtatiladi.

Hozir siz bilan “Zanjir” mashqini o‘tkazamiz. Men aytgan so‘zni oxirgi tovushiga so‘z toping keyingi so‘z topilgan so‘zning oxirgi tovushidan boshlanadi. Mashq shunday davom etadi.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘qituvchi hikoya aytib beradi.

Do‘stlar maydonchada futbol o‘ynanar edilar. Birdan Farhod yeqilib tushdi. Uning tizzasi shilini ketdi. Do‘stlari uni darxol shifokorga olib bordilar. Uning shilingan joyiga malham sutrishdi. Farhod achiyapti deb yeg‘lab yubordi. Shifokor uni achigan joyiga yaqinlashib bir tofushni cho‘zib aytdi. Bu Farhodga yoqdi u ham chuqur nafas olib shu tovushni cho‘zib aytib chiqara boshladi.

O‘quvchilardan shu tovushni topishni so‘raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Eslatma: Zaif ko‘ruvchi yoki nutqida nuqson bo‘lgan bolalar harflarni o‘rgatish uchun maxsus yondashuvlar talab etiladi. Lab va tishlar orasidagi havo oqimini sezishga yordam bering. Ularni mavzuga qiziqtirish uchun amaliy mashg‘ulotlar bilan tushuntiring.

*Bolalar nima uchun shifokorga bordilar?
Shifokor Farhodga qanday yordamberdi?
U qanday tovushni cho‘zib aytdi?
Farhod qanday tovushni aytdi?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Mavzuni tushuntirish:

O‘qituvchi [f] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida

tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

F tovushini talaffuzida pastki lab yuqorigi tish qirralariga yaqinlashgach, o‘rtasida tor bo‘shliq hosil bo‘ladi, shu tor bo‘shliqdan havo o‘tadi, bu vaqtda yuqorigi lab yengil ko‘tarilgan bo‘ladi, yuqoridagi tish qirralari ko‘rinib turadi, pastki tish qirralariesa pastki lab bilaaan bekutilgan bo‘ladi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo‘ladi, hamda burun yo‘llarini yopib turadi, o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘i orqali o‘tadi, tovush boylamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Darslikdan Ff harf birikmasining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Egri o‘roq **“F”**ni topgach,
Egizagim, – deb yopishdi.
Ikkalasi filni ko‘rib,

Minamiz, – deb chopishdi.

She' rda harf haqida nima deyilgan?

F harfi bilan qanday soʻzlar boshlangan?

F harfi nimaga o'xshatilgan?

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

Farzand haqidagi she'r o'qitiladi.

Far-zan-dim – dil-ban-dim,
Far-zan-dim – a-sal, qan-dim.
Har o-nim fi-do bo‘l-sin,
Far-zan-dim o‘y-nab - kul-sin.

She'r mazmunini tushuntirilishi tavsiya qilinadi.

“Moslashtiring” topshirig‘ida berilgan so‘zlar o‘qiladi. Ularning jufti topiladi. koinot- fazo, kino – film, quyosh-oftob, toza-sof, atrof-tevarak.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Ff harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

2. Fonar soʻzining chizmasidan [f] tovushining oʻrnini aniqlang va tegishli katakni boʻyang.

3. Berilgan namunadan bosma **Ff** harfining bosh va kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.

4. So 'zlarni avval nuqtalar yordamida, so 'ng mustaqil yozing.

5. Rasmda ifodalagan soʻzni topib yozing.(yil fasllari, bahor, yoz, kuz, qish).

[illegible]

**Amaliy
topshiriq
bajarish:**

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog‘liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so‘zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

fil- 1 bo'g'in chizmasi 



Qolgan soʻzlar qatorlarga boʻlingan holda bajarish tavsiya etiladi. Unda oʻquvchilar berilgan soʻzning chizmasini chizadilar. Har bir qatordan vakil chiqib doskada chizmani chizadi qolgan oʻquvchilar tekshirib oladilar:

1-qator: flamingo;

2-qator: jirafa;

3-qator: fonar.

Darslik bilan ishlash:

Harflar tasmasidan oʻtilgan harflar esga olinadi.

Oʻxshash boʻgʻinli soʻzlarni oʻqilishi va soʻzlar maʼnolari tushuntiriladi.

Far-zand, far-rosh

Darslikda berilgan boʻgʻin va soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi.

Topishmoq oʻqitiladi. Rasmlar orasidan javoblari topiladi.

Oqib kelar shildirab,

Oynadayin yaltirab (suv).

Qirgʻoqlarni birlashtirib,

Masofani yaqin qilar (koʻprik).

Bolalarni maftun etar,

Kun oʻtgani bilinmay ketar (argʻimchoq).

Rasm asosida suhbat oʻtkaziladi. Favvoralar haqida gaplar tuziladi. Tuzilgan gap chizmasi doskaga chiziladi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. *Rasmlar nomini ayting va kataklarni soʻz chizmasiga mos ravishda boʻyang.*

2. *Namunaga qarab harflarni tegishli shaklga joylang.*



3. *Harflar orasidan hayvonlar nomini topib boʻyang. (fil, ot, it, boʻri, tulki)*



4. *Soʻzdagi harflardan yangi soʻzlar tuzib yozing. (ota, foto, fotograf, iftor, ifor, tor...)*



Darsga yakun yakunlashdan oldin:

Refleksiya mashqi: Bugun darsda sizning esingizda qolgan bitta ma'lumotni ayting.

Darsga yakun yasash:

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 63-sahifadagi topishmoqni javobini topib kelish.

Billur kabi tovlanib,

Dilga huzur baxsh etar.

Mayin raqslari bilan

Hammani maftun etar.

Bu nima, topinglar-chi!

Topdim, bu –**(favvora)**.

53-54 dars. Ch tovush va Ch ch harflari.

Kim biladi mashqi: O'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan tovushlarni aytadi. O'quvchilar shi tovushlarni ifodalovchi harflarni yozadilar. Kim birinchi yozib bo'lsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi.

Hozir siz bilan “Kim biladi” mashqini o'tkazamiz. Men aytgan tovushlarni kim birinchi bo'lib qog'ozga yozib ko'rsatsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi.

Amaliy topshiriq bajarish:

Eslatma: Autistik spektri buzilishi bo'lgan bolalar e'tiborini jalb qilish, qiziqishlarini uyg'otish va tushunchalarni mustahkamlash uchun turli sensorli, vizual, va qo'l harakati faoliyatlari qo'llaniladi.

Bolaga “Ch” harfi bilan bog'liq narsalar ko'rsating (masalan, choynak, chiroq, chumoli). Har bir predmetni nomlang va unga tegib ko'rish imkoniyatini bering. Mayda o'yinchoqlardan “Ch” harfini yasashingiz va uni bolaga sizni harakatlaringizni kuzatishini aytishingiz mumkin.

O'qituvchi soatni, chumchuqni rasmini qo'yadi. O'quvchilardan bu narsalarning o'rasida qanday o'zhashlik bor ekanligini so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Rasmda nimalar tasvirlangan?*
- *Bu narsalarni qayerlarda uchratish mumkin?*
- *Ularni qanday xususiyatlarini biladiz?*
- *Bu narsalarni qanday o'xshash jihatlari bor?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Mavzuni tushuntirish:

O'qituvchi [ch] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

Ch tovushini talaffuzida lablar aylana shaklida va oldinga bir oz oldinga chiqqan, tishlar bir- biriga jipslashgan, til uchi, til kuragi yuqoridagi tishlar bilan birikadi. Bu birikuv sekin-asta ular o'rtasidagi tirqishga aylanadi, til o'rtasidan qisqa havo oqimi o'tadi. Buni his etish uchun qo'l kaftini og'iz oldiga olib kelish kerak, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga qisilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib qo'yadi, havo esa og'iz orqali o'tadi, tovushning bog'lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Darslikdan Ch ch harf birikmasining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Cho'mich, choynak va chelak,

“Ch”dan boshlanar, qarang!

E'tibor berib ko'ring,

Belgiga “h”dir ko'mak.

Ch harf birikmasi bilan qanday soʻzlar boshlangan?

Ch harf birikmasi deganda nimani tushundingiz?

Sheʼrda Ch harf birikmasi haqida nima deyilgan?

Oʻqituvchi doskada oʻquvchilarga boʻgʻinlarni qoʻshib soʻz hosil qilib oʻqish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan boʻgʻin va soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi.

Joy nomlarini yozilishi Chimyon, Chirchiq, Chortoq kabi soʻzlarni yozilishi orqali tushuntirish tavsiya beriladi.

Rasm asosida togʻ tabiati, havosi haqida suhbatlashadi.

“Chimyon togʻi” matni oʻqitiladi.


Dam olish kunini oʻila-miz bilan birga Chimyon togʻiga chiqdik. U yerda qor koʻp edi. A-kam chana-gʻida, men chana-da maza qilib uchdik. Togʻ havosi bar-chamiz-ga yoqdi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Ch harf birikmasini tegishli rangga boʻyang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

2. Choʻrtan rasmini boʻyang. Choʻrtan soʻzining chizmasidan [ch] tovushining oʻrnini aniqlang va tegishli katakni boʻyang.

3. Berilgan namunadan bosma Ch, ch harf birikmasining bosh va kichik koʻrinishini avval nuqtalar ustidan soʻng mustaqil yozing.



4. Soʻzlarni avval nuqtalar yordamida, soʻng mustaqil yozing.

5. Boʻsh kataklarga mos harflarni qoʻyib soʻz hosil qiling.

Olcha, koʻcha, kulcha, bogʻcha, chala, chana, chaman, charos.

Boʻgʻinlarni yozamiz mashqi:

Oʻqituvchi boʻgʻinlarni aytishini oʻquvchilar

esa ularni kesma harflari yordamida tuzishlarini soʻraydi.

Amaliy topshiriq bajarish:

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bogʻliqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta soʻzni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

chinor- 2 boʻgʻin , 1- boʻgʻin –chi, 2-bogʻin –  nor, chizmada.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan boʻgʻin va soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi.

Oʻxshash boʻgʻinli soʻzlarni oʻqilishi va soʻzlar maʼnolari tushuntiriladi.

choy, choy -nak

Chumchuq haqidagi she'r o'qitiladi.

Ga-la bo'-lib ke-lib-san,

Me-va-lar-ni cho'-qib-san.

Cho'-qi-ma-gin sen hoy-hoy,


Chum-chuq, chum-chuq-voy.

Rasm asosida suhbat o'tkaziladi. Unda hayvon bolalarini nomlanishini tushuntirish tavsiya etiladi. **"Uy hayvonlari"** matni o'qitiladi.

Uy hay-von-la-ri bo-la-la-ri o'z no-mi-ga e-ga. Mu-shuk bo-la-si mu-shuk-cha, it-ni-ki ku-chuk-cha, ot bo-la-si toy-choq, qo'y bo-lasi qo'-zi-choq, ech-ki bo-la-si u-loq-cha, tu-ya bo-lasi bo'-ta-loq, si-gir bo-la-si bu-zoq-cha deb a-ta-la-di. Siz ya-na qay-si hay-von bo-la-la-ri nom-la-ri-ni bi-la-siz?

O'quvchilardan yana qanday hayvon nomlarini bilishi so'raladi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:



1. Ch tovushi qatnashgan so'zlarni belgilang.

2. Bo'g'inlar jadvalini yozing.

3. Rasmlarni bo'yang. Ularning nomlarida qanday bo'g'in ishtirok etganini toping.

Darsga yakun yasashdan oldin:


Refleksiya mashqi o'tkaziladi.

Bugungi darsni baholashda barmoqlardan foydalanamiz.



Mavzuni tushundim.

Mavzu menga tushunarli bo'lmadi.



Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalari bilan birgalikda Alifbe ijod daftarining 64-65-sahifadagi topshiriqlarni takrorlash.

55-56 dars. J tovush va J j harflari. STO‘

Zanjir mashqi: O‘qituvchi “Jj” tovushi bilan boshlanadigan bitta so‘z aytadi. O‘quvchilardan j tovushidan boshlanadigan so‘z aytishni so‘raydi. Mashq shu tariqa davom etadi.

Hozir siz bilan “Zanjir” mashqini o‘tkazamiz. J tovushidan boshlanadi so‘z ayting. Mashq shunday davom etadi.

Amaliy topshiriq bajarish:

O‘qituvchi doskaga jo‘ja va jirfa rasmini qo‘yadi. O‘quvchilardan rasmni ifodalovchi so‘zlarni birinchi tovushlarini topishni so‘raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmda nimalar tasvirlangan?

Jo‘ja so‘zida birinchi tovush qanday? Jirafadachi?

Bu tovushlarni o‘xshashligi bormi?

Eslatma: Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda bolalarga berilgan har qanday topshiriqlarni javobini olish uchun vaqt chegaralanmaydi.

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Mavzuni tushuntirish:

O‘qituvchi [Jj] tovushini qanday hosil bo‘lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to‘siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo‘g‘in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O‘qituvchi uchun eslatma:

J tovushini talaffuzida lablar oldinga lablar aylana shaklida va oldinga bir oz oldinga chiqqan, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, tilning keng uchi qattiq tanglayning oldingi qirrasiga ko‘tarilgan bo‘lib, ular o‘rtasida tirqish (bo‘shliq) hosil bo‘ladi, tilning o‘rtasidan iliq havo oqimi o‘tadi. Buni his etish uchun qo‘l kaftining orqa tomonini og‘iz oldiga olib kelish kerak, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib qo‘yadi, o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz orqali o‘tadi, tovush bog‘lamlari bog‘langan bo‘lib, tebranib tovush hosil qiladi.

Darslikdan Jj harf birikmasining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Soyabonning bandi sinib,
Birpas yig‘lab olibdi.
“J” harfiga o‘xsharkan deb,
Jasur hayron qolibdi.

She‘rda harf haqida nima deyilgan?
J harfi nimalarga o‘xshatilgan?

J tovushi bilan qanday soʻzlar boshlanadi?

Oʻqituvchi doskada oʻquvchilarga boʻgʻinlarni qoʻshib soʻz hosil qilib oʻqish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan boʻgʻin va soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi. Joʻja sheʼri oʻqitiladi. Sheʼr mazmunini tushuntirilishi tavsiya qilinadi.

Joʻjalar juda qiziq,
Oyoqlari qiltiriq.
Chiqishibdi tuxumdan,
Oppoq kichkina xumdan.
“**Chip-chip**”, – deya soʻzlashar,
Oyisini izlashar.

QR-kod orqali “**Oltin tojli xoʻroz**” audio ertak tinglanadi va ertak asosida suhbat oʻtkaziladi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

- 1. Jj harfini tegishli rangga boʻyang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.*
- 2. Joʻja rasmini boʻyang. Joʻja soʻzining chizmasidan [j] tovushining oʻrnini aniqlang va tegishli katakni boʻyang.*
- 3. Berilgan namunadan bosma Jj harfining bosh va kichik koʻrinishini avval nuqtalar ustidan soʻng mustaqil yozing.*
- 4. Soʻzlarni avval nuqtalar yordamida, soʻng mustaqil yozing.*
- 5. Rasmda ifodalagan soʻzni oʻqing j tovushini talaffuzini aniqlang berilgan soʻzlardagi j tovushini talaffuzini namunadagi rangga boʻyang.*

Gap tuzamiz mashqi: Oʻqituvchi 4 ta soʻzdan iborat gap tuzishni soʻraydi.

Hozir siz bilan “**Gap tuzamiz**” mashqini oʻtkazamiz. 4 ta soʻzdan iborat gap tuzing.

Amaliy topshiriq bajarish:

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bogʻliqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta soʻzni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

jayron- 2 boʻgʻin. 1-boʻgʻin jay, 2-boʻgʻin -ron 

chizmasi

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan boʻgʻin va soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi. Oʻxshash boʻgʻinli soʻzlarni oʻqilishi va soʻzlar maʼnolari tushuntiriladi.

jum-la, jum-boq

Topishmoq oʻqitiladi. Rasmlar orasidan javoblari topiladi.

Boʻyni uzun, u tikka,
Jonivordir u bitta. (jirafa)

Yoqut, olmos va sapfir,
Ular bari –(javohir)

Jozibador kuy matni o‘qitiladi. Matn mazmuni asosida suhbat o‘tkaziladi.

Ja-sur ju-da ki-chik yo-shi-dan musi-qa as-bob-la-ri-ni cha-lish-ga qi-zi-qar e-di. U jaj-ji qo‘l-cha-la-ri bi-lan pi-a-nino-ni cha-lar-di. Mu-si-qa dar-si-da g‘ij-jak as-bo-bi-ni ko‘-rib, qi-zi-qib qol-di. Ja-sur-ga g‘ij-jak-da cha-lin-gan kuy ju-da yoq-di. Jon-ku-yar us-toz Ja-mi-la o-pa Jasur-ga g‘ij-jak cha-lish sir-la-ri-ni o‘r-ga-tishga so‘z ber-di.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

- 1. J tovushi qatnashgan so‘zlarni belgilang.*
- 2. Jadvalda berilgan j harflarini bo‘yang.*

Darsga yakun yasashdan oldin:

Refleksiya mashqi:



Dars qiziq va tushunarli bolgan bo‘lsa yashil qalamni, uncha tushunarsiz bo‘lsa sariq qalam, umuman hech narsani tushunmagan bo‘lsangiz qizil qalamni ko‘taring.

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg‘ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo‘ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Menga qanday savollaringiz bor?

57-58 dars. X tovush va X x harflari

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomatni va darsga tayyorgarlikni tekshiradi. O'quvchilarga o'qituvchi darslikdagi shartli belgilarni ta'riflaydi. O'tgan dars bo'yicha fikr almashiladi. Berilgan javoblarga qarab o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Faqat katta mashqi: O'qituvchi o'quvchilardan faqat katta harf bilan yoziladigan so'zlarni topib aytishni so'raydi.

Hozir siz bilan “Faqat katta” mashqini o'tkazamiz. Navbat bilan faqat katta harflar bilan yoziladigan so'zlarni ayting.

Amaliy topshiriq bajarish:

O'qituvchi topishmoq aytadi:

Boshi taroq, dumi o'taq.

O'quvchilardan topishmoqni javobi qanday tovush bilan boshlanishini topishni so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda bolaning qobiliyatiga mos topshiriqlar berilishi kerak, u muvaffaqiyatsizlikka uchraganida undan uzoqlashmaslik kerak.

- *Topishmoq nima haqida?*
- *Topishmoqning javobi nima?*
- *Bu so'zda birinchi tovush qanday?*
- *Bu tovush bilan tanishgansizmi?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Mavzuni tushuntirish:

O'qituvchi [x] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida

tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

X tovushini talaffuzida lablar bir oz ochiq, harakatsiz bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo'ladi, ammo birikmaydi, X tovushini unli “a”, “i”, “u” tovushlari bilan birikkan holda talaffuz etilganida, tilning uchi pastga tushgan va bir oz itarilagan, til kuragining orqa qismiyumshoq tanglayga yaqinlashgan bo'lib, tor bo'shliq hosil bo'ladi va u bo'shliq orqali havo o'tadi X tovushi “ya”, “ye”, “yo”, “yu” unli tovushlar birikmasi bilan talaffuz etilganda, til uchi pastga tushgan bo'lib, pastki kurak tishlar asosiga tegib turadi va bo'shliq hosil qiladi. Bu bo'shliq (tirgish) orqali o'pkadan kelayotgan havo o'tadi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi. Buning natijasida havo oqimi og'iz orqali o'tadi, tovush bog'lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Darslikdan Xx harf birikmasining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Xil-xil so‘zlar yasayman,
Xalq so‘zini boshlayman,
Xazina, xabarda ham,
Xamir, xat, xantalda ham.
Borman xayol, xatoda,
Yo‘qman hayot, hattoda.

She‘rda harf haqida nima deyilgan?

X harfi nimalarga o‘xshatilgan?

X tovushi bilan qanday so‘zlar boshlanadi?

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi. Yaxshilik matni o‘qitiladi. Matn mazmunini tushuntish tavsiya qilinadi.

Yaxshilik


Xon-zo-da ka-sal bo‘-lib qol-di. Bun-dan Xo-lida xa-bar top-di. U ona-si-dan du-go-na-si-dan xabar o-lish-ga rux-sat so‘-ra-di.

Xon-zo-da du-go-na-si Xo-li-da-ni ko‘-rib, juda xur-sand bo‘l-di. Xo-li-da du-go-na-si-ga o‘-til-gan mav-zu-lar-ni o‘z-lash-ti-rish-ga yor-dam ber-di. Xon-zo-da du-go-na-sidan min-nat-dor bo‘l-di. **“Do‘st o-g‘ir kun-da bi-li-nar e-kan”**, – de-di.

Matnda **Xx** harfi ishtirok etgan so‘zlar aniqlanadi.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

- 1. Xx harfini tegishli rangga bo‘yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.*
- 2. Xurmo rasmini bo‘yang. Xurmo so‘zining chizmasidan [x] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli katakni bo‘yang.*
- 3. Berilgan namunadan bosma Xx harfining bosh va kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.*
- 4. So‘zlarni avval nuqtalar yordamida, so‘ng mustaqil yozing.*
- 5. Yo‘nalish bo‘yicha so‘zlarni o‘qing va yozing (xona, xola, taxta, xurmo, xat, xabar).*



- 6. Boshqotirmani toping va javobini yozing (xazina, xo‘rozqand).*



Gap tuzamiz mashqi: O‘qituvchi 4 ta so‘zdan iborat gap tuzishni so‘raydi.

Bugun siz bilan “Gap tuzamiz” mashqini o‘tkazamiz. 4 ta so‘zdan iborat gap tuzing.

Darslikda berilgan rasm asosida so‘z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog‘liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so‘zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.



Xo‘roz- 2 bo‘g‘in. 1-bo‘g‘in xo‘, 2-bo‘g‘in -roz
chizmasi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

O‘xshash bo‘g‘inli so‘zlarni o‘qilishi va so‘zlar ma’nolari tushuntiriladi.

xon, das-tur-xon.

Topishmoq o‘qitiladi. Rasmlar orasidan javoblari topiladi.

Boshi taroq,
Dumi o‘roq (xo‘roz).

Xo‘roz desam, qand,
Qand desam, xo‘roz.(xo‘rozqand)

“Xokkey o‘yini” matni o‘qitiladi. Matn mazmuni asosida suhbat o‘tkaziladi.


Qish-ki sport o‘-yin-la-ri bo-la-lar-ga ju-da yo-qa-di. Ay-niq-sa, xok-key o‘-yi-ni u-lar-ga ya-na-da zavq ba-g‘ish-lay-di. Chun-ki xokkey – mard-lar o‘-yi-ni. Xok-key-da o‘-yin-chilar chaq-qon-lik bi-lan ha-ra-kat-la-nish-la-ri ke-rak. Bu sport tu-ri tez-kor-lik, ep-chil-lik va hush-yor-lik-ni ta-lab e-ta-di. Bu o‘-yin or-ganizm-ni chi-niq-ti-ra-di va ba-quv-vat qi-la-di.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. Kvadratlarga qarang. Qaysi bo‘g‘inlar yetishmayotganini toping va bo‘sh kataklarga ularni yozing.


PA	PU		PO		MI	MO'				FO			
	RU	RE	RO				ZE					KI	KA
XA		XE	XO		NI		NE	NU		QO			QA
JA	JU	JE			DI			DU			LE		

2. Ikkinchi bo‘g‘inni topib, so‘z hosil qilib yozing.



Xona, xola, xurmo,

3. Berilgan rasmlar nomini ayting. Ularda ishtirok etgan harflarni bo'yang.



Darsga yakun yasash:

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Bugun o'zingiz bajargan ishlaringizni qanday baholaysiz?

Barmoqlaringizda ko'rsating.

59-60 dars. Ng tovush va Ng ng harflari.

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Kim biladi mashqi: O'qituvchi harflarni yozadi. O'quvchilardan ularni tez-tez o'qishni so'raydi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagoglarda bolalarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish mas'uliyatining bo'lishi zarur.

Hozir siz bilan “Kim biladi” mashqini o'tkazamiz. Dostkada yozilgan harflarni o'qing.

Amaliy topshiriq bajarish:

O'qituvchi dostkada teng belgisi va ko'ylakm yengining rasmini qo'yadi. O'quvchilardan shu so'zlarda qanday tovushlar iborat ekanligini so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Rasmda nimalar tasvirlangan?

Teng so'zida nechta tovush bor?

Yeng so'zida nechta tovush bor?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush

tushuntiriladi.

Mavzuni tushuntirish:

O'qituvchi [ng] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

ng tovushini talaffuzida lablar kulib turgan holatda, [n] va [g] tovushlari bir biriga qo'shilaib talaffuz qilinadi. Burun yo'llari yopiladi. Buning natijasida havo oqimi og'izdan o'tadi. Tovush bo'g'imlari bog'langan holda tebranib tovush hosil qiladi.

Darslikdan Ng, ng harf birikmasining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Boshqa-boshqa ikki harf,

Ishlar bitta tovush uchun.

“N” va “G”ning juftligi

Ko'rsatar dimog' kuchin.

Ng harf birikmasi bilan qanday so'zlar boshlangan?

ng harf birikmasi deganda nimani tushundingiz?


Ng harf birikmasini boshqa harf birikmalaridan qanday farqi bor?

O'qituvchi dostkada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Ko'rsatkich bo'ylab harflarni bir biriga qo'shing va so'z hosil qiling.



Tez aytish o‘qiladi:
Tonggi toza havo,
Tanangga koni davo.

Rasm asosida tabiat, tong havosi haqida suhbatlashadi.

Olimjon Xoldorning **“Tong”** she’ri o‘qitiladi.

Tong otmoqda, sutdek oppoq tong,
Xayrlashib tun bilan shodon.
Tong ortidan quyosh urib bong,
Chiqar – nurin sochib har tomon.

Mazmuni yuzasidan suhbatlashiladi.


Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

1. “ng” harf birikmasini tegishli rangga bo‘yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.

2. Bodring rasmini bo‘yang. Bodring so‘zining chizmasidan [ng] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli katakni bo‘yang.

3. Berilgan namunadan bosma ng harf birikmasining kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.

4. So‘zlarni avval nuqtalar yordamida, so‘ng mustaqil yozing.



5. Rasmdan yashiringan sabzavot nomini topib, javobini bo‘yang.

6. O‘quvchilar harflardan bodring so‘zini hosil qiladilar va rasmda yashiringan bodring.

Bo‘g‘inlarni yozamiz mashqi: O‘quvchilardan faqat ochiq bo‘g‘inlar tuzib, ularni kesma harflari yordamida yozishlarini so‘raydi.

Amaliy topshiriq bajarish:

Darslikda berilgan rasm asosida so‘z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bog‘liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so‘zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.
tanga- 2 bo‘g‘in , 1- bo‘g‘in –ta, 2-bog‘in –nga, chizmada.



O‘qituvchi rasmdagi pingvin so‘ziga e‘tibor qaratadi.

Ona tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar bor. O‘zlashma so‘zlarning ayrimlarida n va g harflari yonma-yon kelsa ham [ng] tovushini anglatmaydi. Ular alohida [n] va [g] tovushini ifodalaydi. Masalan: pingvin so‘zida ham n va g harflari yonma-yon kelgan bo‘lsa ham [ng] tovushini ifodalamaydi. Ular alohida [n] va [g] tovushini bildiradi.

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi.

Maqollar o‘qitilib, uning mazmuni tushuntiriladi. Vatani borning baxti bor,

Mehnati borning – taxti.
 Yolgʻonning umri qisqa.
 Rang barng olam matni oʻqitiladi. Rasm asosida suhbat oʻtkaziladi.
 Bilasizmi, tabiatda ranglar issiq va sovuq ranglarga boʻlinadi. Sariq, zargʻaldoq, qizil – issiq, binafsharang, koʻk, yashil esa sovuq ranglardir.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

s	l	s	f	t	g	sh
j	a	k	y	t	u	g
e	l	q	p	f	a	k
b	d	e	b	j	h	o
h	p	x	r	m	x	v
o	i	y	q	ng	m	v

Jadvaldan takrorlangan harflarni oʻchirib, qolgan harflardan soʻz hosil qiling.

Darsga yakun yasash: Refleksiya mashqi oʻtkaziladi

Davom ettiring.

Darsda bugun menga juda qiziq boʻldi.

Bugun men ... tushunib oldim.

Meni ... hayron qoldirdi.

Qanday tovush bilan tanishdingiz?

Mashgʻulotda nimalarni eslab qoldingiz?

Bugungi darsda sizga nima yangilik boʻldi?

Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

Menga qanday savolingiz bor?

61-62 dars. ['] tutuq belgisi

Dars maqsadi:

“ ’ ” belgisi bilan tanishadilar;

“ ’ ” belgisi bor soʻzlarni tahlil qilishni bilib oladi;

“ ’ ” belgisi soʻzning oʻrtasida kelishi mumkinligini bilib oladi;

“ ’ ” belgisi bor soʻzlarni tahlil qilishni bilib oladi;

“ ’ ” belgisi soʻzni toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrganadi;

harflarni qoʻshib oʻqishga oʻrganadi;

Boʻgʻinlardan soʻz tuzishga oʻrganadi;

Tayanch soʻzlar: ['] tutuq belgisi ishtirokidagi soʻzlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmi va boʻgʻinli kartochkalar, kesma harflar, Audio yozuv.

Boʻgʻinlarni yozamiz mashqi: Oʻquvchilardan faqat yopiq boʻgʻinlar tuzib, ularni kesma harflari yordamida yozishlarini soʻraydi.

Amaliy topshiriq bajarish:

Oʻqituvchi doskada Rano, elon, alo soʻzlarini yozadi. Audio yozuv orqali shu soʻzlarni eshittiradi. Oʻquvchilardan shu soʻzlarni oʻqib, eshitganlari bilan oʻzlari oʻqiganlaridagi farqni topishni soʻraydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

Doskada yozilgan soʻzlarni oʻqing,

Eshitgan soʻzlaringiz bilan bu soʻzlar orasida qanday farq bor?

Shunday talaffuz qilinadigan yana qanday soʻzlarni bilasiz?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi.

Oʻqituvchi ['] tutuq belgisini tushuntiradi. Bu belgi ekanligi u hech qanday tovushni anglarmasligini tushuntiradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

Oʻqituvchi uchun eslatma:

Tutuq belgisi tovushni bildirmaydi. Tutuq belgisidan oldin kelgan unli tovushni biroz choʻziq, undoshni esa keyingi unlidan ajratib talaffuz qilish uchun qoʻllaniladi.

Darslikdan tutuq belgisining koʻrinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan sheʼr oʻqib beriladi va muhokama qilinadi.

Vergulga oʻxshar shaklim,

“O” va “G”dan bor farqim.

Tutuq belgisi qanday belgiga oʻxshaydi?

Ularning asosiy farqi nimada?

Darslik bilan ishlash:

Darslikda berilgan soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi.

Soʻzingda maʼno boʻlsin,

Vaʼdangda vafo.

Rasmni ifodalovchi soʻzlardagi tutuq belgisini oʻrnini aniqlanadi.

Eʼlon matni oʻqitiladi va mazmuni asosida suhbat oʻtkaziladi.

Diqqat, diqqat, diqqat! Tasviriy sanʼatni yoqtirgan, uning sirlarini oʻrganishni istagan bolalar uchun **“Sanʼat gʻunchalari”** deb nomlangan toʻgarak tashkil etildi.

Rahbar: Maʼmura Talʼatovna.

Kun rejasi: chorshanba va juma kunlari.

Alifbe ijod daftari bilan ishlash:

Berilgan namunadan tutuq belgisini avval nuqtalar ustidan soʻng mustaqil yozing.

Soʻzlarni avval nuqtalar yordamida, soʻng mustaqil yozing.

Berilgan soʻzlar orasidan tutuq belgisi bilan yoziladigan soʻzlarni aniqlang.

Soʻzlar oldidagi foyirachalarni namunada berilgandek rangga boʻyang.

Boʻgʻinlarni yozamiz mashqi: Oʻquvchilardan faqat ochiq boʻgʻinlar tuzib, ularni kesma harflari yordamida yozishlarini soʻraydi.

Amaliy topshiriq bajarish:

Darslikda berilgan rasm asosida soʻz tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.

Rasmdagi bogʻliqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta soʻzni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

Saʼva 

2 boʻgʻin. 1-boʻgʻin saʼ. 2- boʻgʻin - va chizmasi

Darslik bilan ishlash:

Eslatma: Inklyuziv taʼlim sinfida taʼlim olayotgan boshqa (sogʻlom) bolalarda oʻzlariga oʻxshamagan tengdoshlari, ularning hayoti, ehtiyojlarini his qilish, tengdolariga gʻamxoʻrlik hissi uygʻonishiga sababchi boʻladi.

Darslikda berilgan soʻzlar oʻquvchilarga navbat bilan oʻqitiladi. Tutuq belgili soʻzlarning oʻqilishi eslatiladi: Agar tutuq belgisi unidan keyin kelsa, shu unli choʻziqroq aytiladi: saʼva, maʼno, aʼlo kabi.

Agar tutuq belgisi undoshdan keyin kelsa, undosh oʻzidan keyin kelgan unidan ajratilib talaffuz qilinadi. Masalan: sanʼat, jurʼat.

Darslikda berilgan soʻzlarni ikki guruhga

ajratish topshirigʻ beriladi.

1-guruh: tutuq belgisi unidan keyin kelgan soʻzlar;

2-guruh tutuq belgisi undoshdan keyin kelgan soʻzlar;

“Saʼva” matni oʻqitiladi va mazmuni yuzasidan suhbat oʻtkaziladi

Saʼva-chumchuqsimonlar oilasiga mansub sayroqi qush. Uni Oʻzbekistonning togʻli hududlarida koʻp uchratish mumkin. Saʼva bir yilda ikki marta bolalaydi. U daraxtlarga in qurishni yoqtiradi.

Matn yuzasidan quyidagi savollarni berish mumkin:

Saʼva qanday qush?

Uni qayerda uchratish mumkin?

Saʼva qushi haqida nimalarni bilib oldingiz?

Rasmdan foydalanib saʼva qishini tasvirlab bering.

“Na’matak” matni o‘qitiladi. Matn yuzasidan o‘quvchilar bilan suhbatlashish tavsiya qilinadi.

Na’matak ariq yoqalarida, butalar orasida, tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi. Uning guli xushbo‘y, rangi turli-tuman, mevasi shirali, mevasining shakli esa cho‘ziqroqdir. Na’matak ko‘p kasalliklarga davo sanaladi.

Darsga yakun yasash: Refleksiya mashqi



63 dars. Alifbo

Qarsaklar mashqi: O'qituvchi ketma-ket tovushlarni aytadi. O'quvchilardan faqat unli tovushlarni eshitsa qarsak chalish so'raladi.

Amaliy topshiriq bajarish:

Berilgan so'z chizmasiga mos so'z ayting:



Darslik bilan ishlash:

Darslikdagi rasm asosida suhbat o'tkaziladi.

1. Rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Alifbe nima uchun bir bilan xayirlashyapti?
3. Siz **“Alifbe”** darsligidan nimalarni o'rgandingiz?
4. Tovushlar necha xil bo'ladi?
5. Unli tovushlarni qanday talaffuz qilamiz?
6. Necha unli harfni bilib oldingiz?

Darslikda betartib berilgan harflar o'qitiladi.

Eslatma: Moslashtirilgan o'quv usullaridan, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda o'quv muhiti va ta'lim mazmunini bolaga moslashtirish juda muhim hisoblanadi.

Harflarning o'z tartibi borligi, ular shu tartib bilan ketma-ket joylashib turishi tushuntiriladi. Harflarning tartib bilan ketma-ket joylashuvi alifbo deb atalishi aytiladi.

Kavsar Turdiyevaning **“Alifbo”** she'ri o'qitiladi va mazmuni yuzasidan suhbatlashiladi.

Alifboda bordin necha harf?

O'yla aqling qilib sarf!
Go'yo ko'zi, burni bor,
Har bir harfning o'rni bor.
Har bir harf buyuk erur,
Har biri juda zarur.
Adashtirmagin zinhor,
Savod senga bo'lsin yor.
Kavsar Turdiyeva

O'qituvchi Alifbo bilan o'quvchilarni

tanishtiradi. Alifbodafi harflar ketma-ketligi o'qitiladi. Unda necha harf borligi so'raladi.

Raqamli alifbo mashqi o'tkaziladi. Alifbodagi harflarning joylashish o'rniga mos harfni qo'yib so'zni o'qing. O'qituvchi namuna qilib bitta so'zni ko'rsatadi va quyidagi so'zni topish keraklini aytadi: 2,14,11,1 (bola).

O'qituvchi o'quvchilarga alifbe darsligida mustaqil o'qish uchun berilgan ayrim asarlar ustida ishlashi mumkin. O'quvchilar bo'sh vaqtlarida bu she'r va ertaklarni o'qib, qiziqarli ma'lumotlarni o'rganishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Darsga yakun yasash:

Darsdan nimalarni bilib oldingiz?

1	Aa	9	Jj	17	Rr	25	O'o'
2	Bb	10	Kk	18	Ss	26	G'g'
3	Dd	11	Ll	19	Tt	27	Sh sh
4	Ee	12	Mm	20	Uu	28	Ch ch
5	Ff	13	Nn	21	Vv	29	ng
6	Gg	14	Oo	22	Xx	30	' (tutuq belgisi)
7	Hh	15	Pp	23	Yy		
8	Ii	16	Qq	24	Zz		

Alifbe va alifboning farqi nimada?
Alifboda nechta harf bor?

64 dars. O'lkamizda qish. STO'

Kalendar: O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga 2 ta rasm qo'yadi. Shu rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bo'lab gap tuzishni so'raydi. Masalan: bola va qorbola rasmi.

Bugun siz bilan "Gap tuzamiz" mashqini o'tkazamiz. Doskadagi rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bog'lab gap tuzing.

Amaliy topshiriq bajarish:

Partadoshingizga qish faslining alomatlarini ayting.

Qish fasli haqida nimalarni bilasiz?

Amaliy topshiriq muhokamasi

Partadoshingiz sizga qishning qaysi alomatlarini aytdi?

Kim yana boshqa misollar keltira oladi?

Qish fasli qaysi oydan boshlanadi?

Qish faslida tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Qishda qaysi bayramlar nishonlanadi?

O'quvchilarning javoblari xulosalanadi va to'ldiriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojli bo'lgan bolalarga qish faslini tushuntirishdan oldin. Issiq va sovuqni tushuntirish kerak bo'ladi. Bunda bir idishga issiq suv va boshqa bir idishga muz qo'yishingiz va buni bolaga sizning nazoratingiz ostida ushlab ko'rishini tavsiya etishingiz mumkin. Bunda bola ham ko'radi hamda his qiladi bu orqali tasavvur qilishi oson bo'ladi. Bolalarni ko'proq guruhlarda ishlashga undash va dars mashg'ulotlarida obrazli o'yinlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.



Darslik bilan ishlash:


Qambar Otaning **"Yangi yil salomi"** she'ri o'qiladi. She'ning mazmunini tushuntirish tavsiya etiladi. She'r yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

Yangi orzu, yangi shon,
Tilaklari bir jahon.
Dunyo bo'lsin deb omon,
Kulib kelgan yangi yil,
Dil to'ridan bir olam,
Salom senga, assalom!
Yangi yil salomi
Bag'ri to'la quvonch, baxt,

Mangu tinchlik qilib ahd,
Yigitday g‘ayrat-u shaxd,
To‘lib kelgan yangi yil,
Qalb to‘rida bir olam,
Salom senga, assalom!

QR-kod orqali **“Yangi yil oldidan”** ertagi tinglanadi. Mazmuni yuzasidan suhbat uyushtiriladi.

O‘quvchilarga A4 varaq tarqatiladi. Bugungi darsda nimalar yodida qolganini rasmda ifodalashadi.



Xulosa

Ushbu “Alifbe” faniga oid uslubiy qo‘llanma O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi. Qo‘llanma o‘z mazmuni va metodik yondashuvi jihatidan Alifbeni o‘rgatishda yangi pedagogik nuqtai nazar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda har bir bolaning o‘ziga xos rivojlanish darajasi, psixofizik xususiyatlari va sog‘lig‘i e’tiborga olingan.

Qo‘llanma:

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, fan o‘qituvchilari, maxsus pedagoglar, amaliyotchi psixologlar va ota-onalar uchun mo‘ljallangan;

davlatimizning inklyuziv ta’lim sohasidagi siyosiy va huquqiy yondashuvlariga mos keladi;

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Konstitutsiyadagi inklyuziv ta’limga oid moddalarga tayanadi;

darslik mazmuni, mashg‘ulotlar, metodik tavsiyalar va uyga vazifalar orqali har bir bolaning individual ehtiyojiga mos yondashuvni ko‘zlaydi.

Uslubiy qo‘llanmaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Inklyuziv yondashuv asosida tashkil etilganligi: o‘quvchilarning jismoniy, aqliy, eshitish va ko‘rish qobiliyatidagi farqlar hisobga olinib, moslashtirilgan metodikalar ishlab chiqilgan. Bunda o‘quv muhitining moslashtirilgan jihozlar bilan ta’minlanishi, o‘tirish joylarining sog‘liq holatiga mos tanlanishi alohida urg‘u bilan yoritilgan.

Interaktiv va amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitilganligi: har bir dars rejasida o‘quvchilarni faol o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, muloqotga kirishish va diqqatni jamlash bo‘yicha aniq metodikalar keltirilgan. Ko‘p sonli vizual, audio, taktil va harakatli mashqlar bilan bolalarning sezgi organlari va fikrlash mexanizmlarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Oilaviy hamkorlikni mustahkamlashga yo‘naltirilganligi: qo‘llanmada ota-onalarning ta’lim jarayonidagi roli aniq belgilab berilgan. Uyga vazifalar, kuzatuv mashqlari va smaylik orqali bola holatini tahlil qilish usullari bu yo‘nalishda samarali vosita hisoblanadi.

Tanqidiy va ijodiy fikrlash, muloqot, hamkorlik kabi XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilganligi: “4K” (Critical thinking, Creativity, Communication, Collaboration) kompetensiyalarini rivojlantirish har bir darsda ko‘zda tutilgan.

Normativ hujjatlar va ilg‘or metodik asoslarga tayanganligi: qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi hukumatining inklyuziv ta’lim bo‘yicha qaror va nizomlariga, shuningdek, sanitariya va gigiyena talablariga mos holda ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, mazkur uslubiy qo‘llanma nafaqat alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning Alifbe fanini o‘rganishini yengillashtiradi, balki ularning jamiyatga integratsiyalashuvi, o‘zini erkin ifoda etishi va muvaffaqiyatga erishishi yo‘lida muhim amaliy va nazariy yordamchi vosita hisoblanadi. Qo‘llanmaning bosqichma-bosqich metodik ko‘rsatmalari uni O‘zbekiston ta’lim tizimida universal manba sifatida foydalanish imkonini yaratadi.

Mundarija

1	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish	5
2	1-dars. Darslik bilan tanishtirish. Mustaqillik darsi	8
3	2-dars. Men –birinchi sinf o'quvchisi. So'z va gap haqida tushuncha darsi	10
4	3-dars. Mening oilam. Alifbe qahramonlari bilan tanishuv haqida tushuncha darsi	12
5	4-dars. Unli va undosh tovushlar. Men va atrofimizdagi olam	14
6	5-dars. O tovush va Oo harflari	16
7	6-dars. T tovush va Tt harflari	18
8	7-8-dars. A tovush va A a harflari .STO'	20
9	9-10-dars. N tovush va Nn harflari	22
10	11-12-dars. I tovush va Ii harflari. STO'	25
11	13-14-dars. L tovush va Ll harflari	27
12	15-16-dars. M tovush va Mm harflari. STO'	30
13	17-18-dars. U tovush va Uu harflari.	33
14	19-20-dars. D tovush va Dd harflari. STO'	36
15	21-22-dars. K tovush va Kk harflari	39
16	23-24-dars. O' tovush va O'o' harflari	42
17	25-26-dars. B tovush va Bb harflari. STO'	45
18	27-28-dars. E tovush va Ee harflari. STO'	48
19	29-30-dars. Y tovush va Yy harflari	51
20	31-32-dars. R tovush va Rr harflari. STO'	54
21	33-34-dars. Q tovush va Qq harflari	58
22	35-36-dars. S tovush va Ss harflari. STO'	61
23	37-38-dars. Z tovush va Zz harflari	65
24	39-40-dars. V tovush va Vv harflari	68
25	41-42 dars. P tovush va Pp harflari. STO'	71
26	43-44 dars. G tovush va Gg harflari. STO'	74
27	45-46 dars. G' tovush va G'g' harflari	78
28	47-48 dars. H tovush va Hh harflari. STO'	82
29	49-50 dars. SH tovush va Sh sh harflari	86
30	51-52 dars. F tovush va F f harflari. STO'	90
31	53-54 dars. Ch tovush va Ch ch harflari	94
32	55-56 dars. J tovush va J j harflari. STO'	97
33	57-58 dars. X tovush va X x harflari.STO'	100
34	59-60 dars. Ng tovush va Ng ng harflari	104
35	61-62 dars. ['] tutuq belgisi	107
36	63 dars. Alifbo	110
37	64 dars. O'lkamizda qish. STO'	112
38	Xulosa	114